



S. RAZZOQOV

YOG'OCH VA PLASTMASSA KONSTRUKTSIYALARI




03
8-12
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

S.J. RAZZOQOV

YOG'UCH VA PLASTMASSA KONSTRUKSIYALARI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan 5580200 — Binolar va inshootlar qurilishi va
5140900 — kasb ta'limi («Binolar va inshootlar qurilishi»)
ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan



«Akademiya»

Toshkent 2005

Ta'rifchilar: S. Sayfiddinov, Toshkent Arxitektura-qurilish institutining dotsenti

M. Nasriddinov, Namangan Muhandislik-pedagogika institutining dotsenti

O'quv qo'llanma «Binolar va sanoat inshootlari qurilishi» ta'lim yo'nalishi o'quv dasturi asosida tayyorlandi. Qo'llanmada yog'och va plastmassa konstruksiyalari tarixi, qurilish materiali sifatida ishlatilishi, ularning bino va inshootlar uchun tayyorlanadigan turli xil konstruksiyalarning turlari, qo'llanishi, ishlash asoslari va usullari, misollar hamda ifodalor o'z aksini topgan.

Ushbu o'quv qo'llanma «Binolar va sanoat inshootlari qurilishi» yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.



KIRISH

Yog'och va yengil keyingi yillarda qurilishda keng qo'llanayotgan plastmassa konstruksiyalari yengil qurilish konstruksiyalari bo'lib, ularni qo'llash qurilishdagi eng muhim yo'nalish, qurilish ishlab-chiqarishni tezlashtirish va samaradorligini oshirishga olib keldi.

Yog'och o'zi hamoydga keladigan, tayyor qurilish materiali hisoblanadi.

Yog'och - nisbatan yengil va mustahkam materialdir.

Quruq qarag'ay va qora qarag'ay yog'ochining zichligi 500 kg/m^3 ga teng. Ilo o'z navbatida yog'och konstruksiyalari oraliqini 100 metr gacha va undan katta qilib tiklash imkoniyatini beradi. Yog'och - yaxshigina ishqilik saqlovchi materialdir, bu esa devorlar va kam qavatli uylar toza yopmalari uchun juda muhimdir. Yog'och - qattiqligi kam material bo'lgani uchun unga yengil ishlov berish mumkin. Bu xususiyati yog'och konstruksiyalarini tayyorlashni osonlashtiradi.

Yog'och kuchli kimyoviy agresiv muhitga chidamli va shuning uchun yog'och konstruksiyalari kimyo sanoatida keng ko'lamda muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda (metall konstruksiyalar kimyoviy agresiv muhitda tez buziladi). Uzarba va tikuvlanuvchi yeklamalar ta'siriga chidamli va shuning uchun yog'och konstruksiyalari kuchli tebranishlar ta'sirida bo'lgan ko'priklarda ham yuqori mustahkamlikka ega.

Yog'och konstruksiyalari ishonchli, yengil va yetarli mustahkamlikka ega. Yaxlit-butun kesimli yog'och materiallari asosida turarjoy, umumiy va ishlab-chiqarish binolari quriladi. Yelimlangan yog'och konstruksiyalari asosida esa kichik va katta oraliqli toza yopmalar tiklanadi.

Yog'och atvga chidamli sintetik yelimlar bilan ishonchli yelimlanadi. Buning natijasida yirik ko'ndalang kesimli, katta uzunlikdagi, turli shaklda qilingan, sinqli hamda boshqa turlardagi yelimlangan yog'och konstruksiyalari tayyorlanadi. Yelimlangan yog'och konstruksiyalardan katta oraliqli konstruksiyalar ham tayyorlanadi.

Yog'ochdan suvga chidamli qurilish fineroni olinadi va ularning yengil yelimlangan finerli konstruksiyalar tayyorlanadi.

Shuningdek, yog'och konstruksiyalari kamchiliklarga ham ega. Noto'g'ri qo'llanilganda va ishlatilganda hamda uzoq vaqt namlik ta'sirida ular chiriydi. Lekin hozirgi zamon konstruktiv va kimyoviy hamoya usullari uzoq muddat ishlatilganda chirishdan saqlash imkoniyatini beradi. Yog'och konstruksiyalari yomruqchan hisoblanadi. Ammo hozirgi paytda qo'llanilayotgan yirik ko'ndalang kesimli yog'och konstruksiyalarining olovga bardoshlilik chegarasi ayrim metall konstruksiyalarinikidan yuqoriroqdir. Ular qo'llanilgan yonishga qarshi maxsus qoplamalar bilan ham himoya qilinadi.

Plastmassalardan jamost va ishlab chiqarish binolari uchun to'rtuvchi konstruksiyalar hosil qilish mumkin. Ular juda yengil va yorug'lik o'tkazadigan ham bo'lishi mumkin. Bu konstruksiyalar suvga chidamli va chirimaydi.

Yog'och va plastmassa konstruksiyalari tarixi

Yog'och konstruksiyalari. Ularni qo'llanish tarixi ko'p asrlarni o'z ichiga oladi. Ibtidoiy odamlar ham yog'ochdan tosh bo'tlalar yordamida kichik turarjoylar barpo qilganlar va ularni qo'ziqlar yordamida yerga mahkamlaganlar hamda to'siq, kichik ko'priklar qurganlar. Qadimgi Rimda quruvchilar yog'och uy,lar, chironlar hamda katta daryolarga ko'priklar qurganlar. Masalan, I asrda Sesar o'z legioni yordamida Reyn daryosiga yirik ko'priklar qurdirgan. Hovirigacha o'rta asrlarda Yaponiyada va Xitoydagi bambuk yog'ochdan qurilgan ko'priqlar chironlar saqlanib kelmog'da. O'rtas asrlarda Yevropada ham yog'och strepilli temir keng qo'llanilgan.

Tarixiy manbalaridan ma'lum bo'lishicha, eramizdan 10 ming yillar oldin tosh asrida ham turli yog'och konstruksiyalari qo'llanilgan. Bunga oddiy misol, ibtidoiy jamoa turumi davrida inson chiqirliklardan o'tish uchun yog'och to'siqlardan foydalangan, ya'ni o'sha davrda ko'priklar konstruksiyasini yaratgan.

XIX asrning 70-yillarida yangi Qit'eya mamlakatiga borib qolgan rus olimi N. N. Miklukho - Mikloy papuas qabilalarining uylarida oddiy yog'och konstruksiyalarini va tosh bo'tlarni ko'rgan. Papualar yog'och asriga ustun qo'yib ramalar hosil qilib uy qurgan. Bu usulni ular qadim zamonlardan qo'llab kelgan.

Qadimgi Rossiya va Shimoliy Amerikada yog'ochning elastik va plastik xususiyatlaridan juda to'g'ri foydalanilgan. Xususan, yog'och konstruksiyalari yordamida yerto'lalar qurilgan. Eramizdan uch ming yil oldin — Neolit va bronza davrlarida qoziq konstruksiyalari ishlatilgan. Yog'och uy,lar qurish uchun kerakli bo'lgan bo'tla, to'sha va boshqa temir qurilma, asosan, qalldorlik turumi davrida dunyoga kelgan. Bu davrda yog'och konstruksiyalar asosan o'sha davrda juda rivojlangan Italiya mamlakatining Rim shahrida tarug'iy eigan. Eramizdan oldingi II asrdan-yoq Rim shahridagi qurilishlarda yog'och ferma konstruksiyalar qo'llanilgan. Fossal turumi davrida esa yog'och hunarmandchilik san'ati nihoyatda rivojlangan.

XVI asrga kelib italyan arxitektori Palladio (1518 - 1580) sterjenlar sistemidan iborat yog'och konstruksiyalarining bir qator sxemalarini yaratgan.

O'rta asrlarda turarjoy binolari, saroylar, ko'pgina chironlar hamda qal'alar devorlari aksariyat ko'ndalang kesimli yog'ochlardan qurilgan.


XVIII asr oxirlarida rus muhandisi I. P. Kulibin Peterburgda Neva daryosi orqali 300 metrli (1-a rasmi) yirik yog'och ko'priklarning ishlash loyihasini yaratgan. Ko'priklar ishlash konstruksiyali sistemaga ega bo'lgan va u egiluvchan arka hamda birer arksimon formalardan tashkil topgan. Ushbu ko'priklarning kichraytirilgan (1:10 mashtabidagi) modeli qurilib, sinab ko'rilgan. Sinov natijalari ko'priklar konstruksiyasining mustahkamligi yuqori ekanligini va ko'ndalang kesimlar to'g'ri tanlanganini isbotlab bergan. Mashtab ko'priklar loyihasi o'sha davrlarda yirik ko'priklar quri-

lishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jihoslarning yetarli bo'lmaganini sabbi tabiiy o'lchamda qurilmay qolgan.

XIX asr boshlarida Rossiyada Moskva manajini qurishda birinchi marta uchburchaksimon to'rtqirra yog'ochdan tayyorlangan 50 metr oraliqli fermalar qo'llanilgan (1b - rasmi). XIX asr o'rtalarida rus olimi D. I. Jarnovskiy Mita daryosi orqali oraliq 61 metr bo'lgan yangi yog'och ferma ko'priklar loyihasini yaratgan (1v - rasmi). Rus muhandisi V. I. Shurov esa XIX asr boshlarida birinchi marta yog'och fazoviy konstruksiyalarining loyihalarini ishlab chiqqan. Orsk shahrida u ishlab chiqqan loyiha asosida 36 m balandlikdagi sterjenlardan tashkil topgan to'rsimon konstruksiyali minora qurilgan (1g - rasmi).

XX asrning 30-yillarida po'lat va sementning tanqisligi tufayli yog'och konstruksiyalariga bo'lgan e'tibor ayniqsa sanoat qurilishida kuchaygan. Bu davrda taxta - mixli to'sin va ramalar, to'rtqirra va taxta - mixli segmentli fermalar, rus olimi V. S. Derevyagin taklif etgan yog'och plastinka tarkibli to'rtqirra to'sinlar qo'llanilgan.

XX asrning 50-yillarida birinchi marta velimlangan yog'och konstruksiyalari ishlab chiqarila boshlangan. Bu turdagi konstruksiyalar rivoji rus olimi G. G. Karlson hayoti va ijodi bilan uzviy bog'liqdir. Sintetik polimer emulalar asosida yuqori mas-



1-rasm. Rossiya da yaratilgan qadimgi mashhur yog'och konstruksiyalarining sxemalari:


- a - S. Peterburgdagi Neva daryosi orqali ko'priklar loyihasi (muallif I. P. Kulibin);
- b - Moskva Manajining yog'och fermasi (muallif A. A. Betankur);
- v - Moskva - S. Peterburg temir yo'lidagi Mita daryosi orqali ko'priklar fermasi (muallif D. I. Jarnovskiy);
- g - Orsk shahridagi to'rsimon minora (muallif V. I. Shurov)

tahkamlikka ega bo'lgan suvga chidamli yelimlarni ishlab chiqarilishi bu turdagi konstruksiyalarni yanada rivojlanishiga olib kelgan. Yog' ochni yelimlashda o'ldin-ruq fenolformaldegidli, keyinroq esa ishonchli rezorsinali yelimlar, yog' ochni metallga yelimlashda epoksidli yelimlar qo'llanilgan.

1940-yillarda birinchi marta yirik yelimlangan yog' och konstruksiyalaridan kalyuzni ombori loyihasi yaratilgan va qurilgan. Bu omborning asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalari tortqichsiz ko'rsatkichsiz yelimlangan yog' ochli arkalaridir. Arkalar 43 m oraliqli va ko'ndalang kesim o'lchamlari 30×105 sm ga tengdir (2a-rasm). 1980-yillarda Arxangel'da asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalari oraliqi 63 m li va ko'ndalang kesimi 32×160 sm bo'lgan yelimlangan yog' ochli segmentli tortqichsiz arkalar yonida sport saroyi qurilgan (2b-rasm).

Yelimlangan yog' och elementlar kam qavatli turarjoy uylari konstruksiyalarida, kichik sanoat va jamoat binolarida, avtoyo'l ko'priklarida qo'llanila boshlagan. Shuning bilan birga yangi turdagi yelimlangan yog' och konstruksiyalari binolarini yaratilgan va tadqiq qilingan. Jumladan, ichki yelimlab mahkamlangan po'lat sterjenli to'rtburchak, tartalarini biriktirish uchun po'lat tişli plastinkalar va hokazo. Fransiya va Amerikada yendi yog' och elementli katta bo'lmagan hamda yirik oraliqli yelimlangan yog' och arkasimon fazoviy konstruksiyalar keng qo'llanila boshlagan. Fransiyaning Puatye shahrida qurilgan tribunali sportal bunga misol bo'la oladi. Bu inshoot rejada oval ko'rinishda, tom yopmasining asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyasi oraliqi 175 metr bo'lgan yelimlangan yog' och arkadir.

Amerikaning Bosman shahridagi sportal tom yopmasi shirasimon gumbazdir. Gumbaz oraliqi 91,5 metr va balandligi 15 metr bo'lgan ko'p burchakli tayanch halqasiga tayanuvchi markazlashgan yelimlangan yog' och qo'ng'ir'ali arkalaridan tashkil topgan.



2-a rasm. XX asrda Rossiya hududida qurilgan birinchi yirik yelimlangan yog' och konstruksiyalarining namunalari.

Solt-Layk-Siti shahridagi AQSH sportal tom yopmasi to'rtburchak yacheykali yelimlangan yog' och konstruksiyali, diametri 150 m va balandligi 38 m bo'lgan po'lat tayanch halqasiga tayanadigan gumbazdir.

Keyingi yillarda rus olimlaridan GN Zubarev, Yu. V. Slutskov, VM. Xrušov, I. M. Grin, R. I. Bergen, V. D. Budanov, MM. Gappov, LM. Guskov, Z. B. Mozmurova, B. A. Ovenskiy, V. S. Serichev, E. V. Filimonov, o'zbek olimlaridan Q. I. Ro'ziyev, S. Turamov, I. Xodjiyev, S. Isaboyev, S. I. Razzoqov, M. Ilmudovlar «Yog' och va plastmassa konstruksiyalari» fani rivojiga katta hissa qo'shib kelmoqchilar.

O'rta Osiyoda ham XIX-XX asrlarda yog' och konstruksiyalari keng qo'llanilgan. Ayniqsa, ferma konstruksiyali inshootlar, yog' och sinchli uylar ko'plab qurilgan. Me'moriy fazoviy yog' och konstruksiyalari nisbatan kamroq qo'llanilgan.

O'zbekistonda qurilgan ko'plab yog' och ferma konstruksiyali omborlar, garajlar, dala shypmentlaridan hozirgi kunlarda ham foydalanilmoqda. Jumladan, 1980-yillarda o'zbek olimi Q. I. Ro'ziyev tomonidan fazoviy yog' och sterjenli-struktura konstruksiyalarining bir necha yangi loyihalari yaratilgan va O'zbekistonning Angren hamda Namangan shaharlaridagi qurilishlarda qo'llanilgan. Bu inshootlardan hozirgi vaqtda ham foydalanilmoqda.


Hozirgi davrgacha O'zbekiston Respublikasi va boshqa xorijiy davlatlar hududida devorlari mahalliy materiallardan, yog' och sinchli ko'plab yakkida turibdagi uylar qurilmoqda. Qurilayotgan ustalar uzoq yillardan buyon xalqimiz erishgan mahalliy qurilish san'ati yutuqlarini egallagan va milliy qurilish san'atlarini davom ettirib kelayotgan ustalaridir. Yog' och-sinchli binolar ilmiy jihatdan nisbatan kam o'rganilgan, bu sohada bir necha tadqiqotlar o'tkazilgan, xolos. Qurilish me'yorlari va qoidalarida ham bu turdagi binolar to'g'risida juda kam ma'lumotlar berilgan. Seysmik mustahkam yog' och binolar qurishda eng sara material bo'lishiga qaramay, undan qurilgan sinch uylar, zilzilabardoshlik talablariga amal qilingan holda, loyiha asosida qurilmagina, o'zining ijobiy xossalarni namoyon etadi. 1980-yilda Toshkent shahri yaqinidagi Nazarbek posyolkasida hamda 1976 va 1984-yilda Gazlida sodir bo'lgan zilzilalar natijasida yog' och-sinch devorli uylar jiddiy shikastlangan, vayronaga aylangan, bir qancha insonlar nobod bo'lgan edi. Shunga qaramasdan respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda hozirgacha yog' och-sinchli uylar ko'plab qurilmoqda. Bu, albatta, shu soha olimlarini tashvishga solmasligi mumkin emas. Chunki bu turdagi binolar haligacha ilmiy jihatdan to'liq tadqiq etilmagan.

Yog' och-sinch devorli binolarda sinchlarning urasi odatda gumbaz bilan to'ldiriladi va sonenli loy bilan sivoq qilinadi. Bunday uylarning ichki iqlimi yozda salqin va qishda issiq bo'lishi. Uzoq kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bunday uylarda yashaydigan inson salomatligiga zarar yetmaydi. Chunki ularni qurishda

qoʻllanilgan qurilish materiallarining barchasi tabiiy materiallardir. Shuning uchun ham maʼlum yogʻ och konstruksiyali uybir ekologik jihatdan sofdir.

Yogʻ och sinchli binolar qoʻsh va yakk sinchli qilib quriladi. Qoʻshsinch orasini baʼzi ustalar gʻirali-loy va parcha gʻirali-loy aralashgan nam tuproq bilan toʻldirib, devorning isitq-sovuq oʻtkazmaslik xususiyatini shu yoʻsinda oshirmoqchi boʻlishadi. Biroq, bunda binoning umumiy ogʻirligi ortib ketadi. Bu esa zilzilabardoshlik nuqtai nazaridan notoʻgʻri. Shuning uchun devorning isitq-sovuq oʻtkazmasligini boshqa yoʻllar bilan oshirish zarur. Masalan, qoʻshsinch orasini qipiq yoki shunga oʻxshash yengil materiallar bilan toʻldirish mumkin. Qoʻshsinch devorni qurishda quyidagi tartibga riya qilinadi: havo - mustahkamligini yuzada oshiradi: 1) tashqi sinch toʻldiriladi; 2) tashqi sinchning ichki tomoni samonli loy bilan suvaladi; 3) ichki sinch toʻldirish bilan bir vaqtda devorning ichki tomoni samonli loy bilan suvaladi; 4) ichki sinchning ichki tomoni, tashqi sinchning tashqi tomoni suvaladi; 5) uy burchaklari esa loy va gʻirali bilan toʻldirib qilib toʻldirib chiqiladi.

Respublikamizda bir qavatli yogʻ och konstruksiyali binolar qurilishi soha-gina rivojlangan (3-rasm).



3-rasm. Yogʻ och-sinch konstruksiyali bir qavatli yakk sinchli binolar qurilishi.

Bu hol mahalliy yogʻ och materiallarining sarfbligi bilan izohlanadi. Mamlakatimizda, ayniqsa, terak yogʻ och materiali juda katta maydonni egallaydi. Uning mustahkamligi, nisbatan taqqoslaganda, oq qazagʻay bilan deyarli tengdir.

Yogʻ och konstruksiyali binolar barchaning koʻz oʻngida zilzil sinchlaridan oʻtgan. «Sinch uyim - tinch uyim» maqoli bejiz paydo boʻlmagan. Respublikamiz hududida keyingi yillarda ikki qavatli yogʻ och sinchli binolar qurila boshladi. Bu albatta mustaqilligimiz sharoitida va yogʻ och materiallari asosidagi qurilishlarning yangi XXI asrdagi rivojlanishi hisoblanadi.

Plastmassa konstruksiyalari X asr oʻrtalarida paydo boʻlgan. Undan oldinroq polimer sintetik smolalar asosida konstruksiyaviy plastmassa qurilish materiallari yaratilgan va ularni ishlab chiqarish amaliyoti rivojlana boshlagan.

Asosiy konstruksiyaviy plastmassa materiallari quyidagilardir: uchaksiz bir-biri bilan oʻzaro kamshiruvchi oymashli, yorugʻlik oʻtkazmaydigan polimer termoelektriv smolali oʻta mustahkam **stakloplastik**; yorugʻlik oʻtkazadigan va termoplastik polimer smolalar tashkil topgan **organik tyna**, termoplastik polimer smoladan tashkil topgan, yorugʻlik oʻtkazuvchi (yoki oʻtkazmaydigan) va kimyoviy agresiv muhitga chidamligi bilan ajralib turadigan **vinoplast**, termoplastik, yoki termoelektriv smola devorli, qattiq havo pufakchalardan yoki zararniz gʻirali tashkil topgan, chegoraviy kichik xususiy ogʻirligi, mustahkamligi va bekrliigi bilan farq qiladigan **penoplast**.

Havo oʻtkazmaydigan gazlar smola - polimer tolali gazlar smola, ularning tuti sintetik rezina yoki elastik polimer smola bilan qoplangan boʻladi.

Barcha konstruksiyaviy plastmassalar yupqa va kichik qalinlikda boʻladi. Ularining qalinligi millimetrlarda oʻlchanadi va asosan tekis, toʻlqinsimon hamda oʻramli qilib tayyorlanadi. Faqat penoplastlarga plita shaklida, sentimetrlarda oʻlchanadigan qalinlikda va stakloplastik turli profili va truba koʻrinishida ishlab chiqiriladi.

Plastmassalar konstruksiyaviy qurilish materiali sifatida muhim afzalliklarga ega. Bu materiallar yengil boʻlib, ularning zichligi yogʻ och zichligiga nisbatan ikki barobar yuqoridir. Lekin penoplastning zichligi juda kichkina va u koʻpincha 90 kg/m³ dan oshmaydi. Plastmassalarga toʻliq yopiq shakl berish mumkin, ular chirimaydi, kimyoviy agresiv muhitga chidamli hisoblanadi.

Plastmassalar qurilish materiali sifatida maʼlum kamchiliklarga ham ega. Ular yotuvchidan hisoblanadi va yuqori boʻlmagan olovbardoshlik chegorasiga ega, ularning qattiqligi yuqori emas (bundan faqatgina yuqori mustahkamlikka ega boʻlgan stakloplastika mustasnodir). Bu material yogʻ ochga nisbatan qattiqligi kam, atmosfera taʼsirida eskiradi, rangini oʻzgartiradi, yaʼni uning fizik-mexanik xususlari oʻzgaradi. Bundan tashqari, plastmassalar hozircha qimmat va tinchdir.

Pnevmatik konstruksiyalar havo oʻtkazmaydigan gazlar yoki plyunkodan tashkil topgan yopiq qubulardir. Ular havo tinchli, havokarkashi va havoventli turarlarga boʻlinadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Yog'och qaysi sohalarida ishlatiladi?
2. Yog'och konstruksiyalari qachon va qaysi sohalarida qo'llanilgan?
3. Qachon el olinlaridan kimlar yog'och konstruksiyalariga oid ishlar bilan shug'ullangan?
4. Fazoviy yog'och strukturali konstruksiyalarning yangi turlarini qaysi o'zbek olimi yaratgan?
5. Plastmassalar qaysi sohalarida ishlatiladi?
6. Plastmassalarning qanday turlarini bilasiz?
7. Plastmassalar qachon paydo bo'lgan?


1-BOB Yog'och va plastmassa

1.1. Yog'och

Yog'och tabiiy qurilish materialidir. Uning zahirasi MDH davlatlari ichida Rossiya hududida eng ko'p bo'lgani uchun ilgari ham, hozirgi vaqtda ham ko'pgina mamlakatlarga yog'och materialini asosan shu davlat eksport qiladi. Jamlanib, O'zbekiston qurilishlarida ishlatiladigan sara yog'och materiallari ham asosan Rossiyadan keltiriladi.

Yog'och materiallari, asosan, ikki turlagi: igna bargli va yaproqli daraxtlardan olinadi.

Dovrasimon qurilish materiali - ikkala chekkasi tekis arralangan, butog'laridan tuzalangan yog'ochdir. U 4,0; 4,5; 5,0; 5,5; 6,0 va 6,5 m uzunliklarga ega va bu turlagi yog'och materiallari kesik konus shaklida bo'ladi. Ular diametrining uzunli-



4-rasm. Yog'och materiallari: a) arralangan, b) doirasimon, 1) taxtaning keng yuzi tomoni, 2) uchidagi yon tomoni, 3) qalinligi yon tomoni, 4) qirrali yog'och, 5) qalin taxa, 6) yupqa taxa, 7) reyka, 8) yog'och xoda, 9) bir tomoni tekis xoda, 10) kashlangan xoda.

gi bo'yicha kamayishi kichrayishi deb ataladi. Kichrayish o'rtacha 1 m da 0,8 - 1 sm ni tashkil qiladi (4-rasm). Uning o'rtacha diametrini quyidagi ifida रुपи aniqlash mumkin:

$$d_{av} = d + 0,5 l \quad (1.1)$$

Dovrasimon ko'ndalang kesimli yog'ochning diametri kichik diametri bo'yicha aniqlanadi. Uning o'rtacha diametri 14 sm dan 26 sm gacha ora-liqda bo'ladi va ayrim hollarda undan katta bo'lishi ham mumkin. Diametrlarning o'zgarish gradienti 2 sm ni tashkil qiladi (14 sm, 16 sm...).

Diametri 23 sm dan kichik bo'lgan yog'ochlar vaqtinchalik inshootlar qurilishida ishlatiladi.

Qirrali yog'och materiallari - arralangan yog'ochni tilish rasmlarida yoki aylana tilish stanoklarida ularning bo'ylamas bo'ylab arralash natijasida hosil qilinadi. Ular standart 0,25 m gradientiga bilan 1 m dan 6,5 m gacha bo'lgan

o'ldiriladi bo'ladi. Yuk ko'taruvchi konstruksiyalar uchun yog'och tاختaning kengligi 60 mm dan 250 mm gacha, qalinligi 11 mm dan 100 mm gacha bo'ladi.

Birtocha - qalinligi 50mm dan 100 mm gacha, kengligi 100 mm dan 175 mm gacha bo'ladi.


Brus - qalinligi va kengligi 125 mm dan 250 mm gacha bo'ladi.

Yog'ochning tuzilishi, hutoqlari va sifati uning kelib chiqishi bilan aniqlanadi. Dastav sifati kelib chiqishi va o'sishi natijasida yog'och trubosimon qatlam -tolali tuzilishga ega bo'ladi.

Yog'och qurilish materialining sifati, asosan, uning bir jinslilik darajasi bilan aniqlanadi. Bir jinsli tuzilishga ega bo'lmagan yog'och o'sishi, omborda saqlash, quritish, qayta ishlash va ishlatish jarayonida vujudga keladi.

Yog'ochning sifati tuzilishiga, bir jinslilikga o'zgartiradigan emil -bu hutoqlardir. Hutoqlar yon shoxlarning o'sishi natijasida vujudga keladi. Konstruksiyaviy yog'och materiallarining sifati uning toifalari bilan belgilanadi. Yog'och materiallari uch toifaga bo'linadi (3-rasm).

Birinchi toifa yog'och materialining 20mm uzunligidagi hutoqlar diametrlarining yig'indisi $d \leq (1/4)b$ dan kichik bo'lishi va 1 metr masofadagi tolalar yo'nalishining qiyaligi 7% ga teng yoki kichik bo'lishi kerak ($7 \geq i$). O'rtacha mustahkamlikka ega bo'lgan ikkinchi toifa yog'och materiallari uzunligi bo'yicha 20 mda, hutoqlar diametrlarining yig'indisi $d \leq (1/3)b$ dan kichik bo'lishi va 1 metr masofadagi tolalar yo'nalishining qiyaligi 10% ga teng yoki kichik bo'lishi lozim ($10 \geq i$, bu yerda: i -nishabdar). Uchinchi toifa yog'och materiallarida esa, $d \leq (1/2)b$ dan kichik bo'lishi va tolalar qiyaligi 12% dan katta bo'lmaligi kerak.



3-rasm. Yog'och materiallarining sifati bo'yicha toifalari:
a, b, v - 1, 2 va 3-toifalar. 1) tola qiyaligi, 2) hutoqlar

Birinchi toifa yog'och materiallari eng asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalarni tayyorlashda, ko'proq cho'zilishga ishlovchi elementlarda, ikkinchi toifa yog'och materiallari - boshqa o'rta kuchlangan yuk ko'taruvchi konstruksiya elementlarida, uchinchi toifa yog'och materiallari esa kam kuchlangan to'shlar va qoplamalarda ishlatiladi. Yog'ochning xossalari asosan uning tuzilishi bo'yicha aniqlanadi. Yog'och xususiy og'irligi bo'yicha yengil konstruksiyaviy materiallar sinfiga kiradi. Uning zichligini 12% nisbatda aniqlanadi.

Yog'ochning mustahkamligi zo'r qish yo'nalishini tola yo'nalishiga nisbatan ta'sir qilishga bog'liqdir. Qarag'ay yog'ochining o'rtacha mustahkamlik chegarasi cho'zilishda 100 MPa, egilishda 75 MPa va siqilishda 40 MPa ga tengdir. Zo'r qish tolariga ko'ndalang ta'sir qila, yog'ochning cho'zilishdagi, siqilishdagi va siljish-yorilishdagi mustahkamligi 6,3 MPa dan oshmaydi. Yog'och ichki tuzilishining bir jinsli emaligi yog'ochning siqilish va egilishdagi mustahkamligini o'rtacha 30% va cho'zilishdagi mustahkamligini 70% kamaytiradi.

Tashqi yukning uzoq vaqt ta'sir qilishi ham mustahkamlik va deformatsiyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chegaralangan uzoq vaqt yuklama ta'siridagi mustahkamlik uzoq qarshilik ko'rsatish chegarasi bilan xarakterlanadi va u standart qisqa muddai yuklanganlikdagi mustahkamlik chegarasining yarmini tashkil qiladi ($0,5 \cdot \sigma$).

Tirratish yuklamalari yog'ochda o'zgaruvchan belgili kuchlanishlar hosil qiladi va ular ham yog'och mustahkamligini pasaytiradi. Yog'och bu xil yuklamalarga $0,2 \cdot \sigma_{\text{ch}}$ chegaradagi qiymatgacha bo'lgan yuklamalarida chegaralanmagan muddadagi ishlaga bardosh beradi.

Yog'ochning qattiqligi va tikrligi trubosimon tolali tuzilishiga ega bo'lgani uchun nisbatan tacha katta emal.

Tikrlilik - yuklama ta'sir qilganda yog'ochning deformatsiyalanuvchanlik darajasidir. Tikrlilik yuklamaning tolar yo'nalishiga nisbatan ta'sir qilishiga, yuklama ta'sirining muddatiga va yog'och namligiga bog'liq.

Yog'ochdagi deformatsiyalar - oniy elastik (qisqa muddatli yuklamalardan), elastik va qoldiq (uzoq muddatli yuklamalardan) paydo bo'ladi. Oniy elastik deformatsiyalar yuklama ta'siri yo'qligunda tezda qaytadi, elastik deformatsiyalar vaqt o'tgandan keyin qaytadi, qoldiq deformatsiyalar esa (plastik) qaytmaydi.


Tikrlilik elastiklik moduli (E) bilan aniqlanadi. Laboratoriya sharoitida igna bargli yog'ochlarning tikrligi aniqlanganda, 15000 MPa gacha bo'lgan qiymatlarda elastiklik moduli chiqishi mumkin. Lekin real sharoitda yog'ochning elastiklik moduli bundan 1,5 marta kichik va u normal harorat harida namlik sharoitida 10000 MPa qiymatga teng, deb olinadi. Yag'och namlik va ochiq havo sharoitida bu qiymat 0,9 dan 0,75 gacha bo'lgan oralqdagi koeffitsiyent qiymatlariga ko'paytiriladi [5]. Yog'ochning qattiqligi kam bo'lgan sababi uning tikrligi, yuklamaning tolariga ko'ndalang yoki burchak ostida ta'sir qilgan holatlarda, 50 marta kamayadi. Qattiqlik radiusi 3,64 mm bo'lgan po'lidan tayyorlangan yarim sfarani bosim bilan bosish orqali aniqlanadi. Masalan, qarag'ayning qattiqligi (uning yillik halqalariga

ko'ndalang ta'sir qilgan holatda) 1000 N ga tengdir. Qattqlikning kichikligi yog'ochga ishlov berishni osonlashtiradi, lekin uning sirtining buzilishiga saloh bo'ladi. Yog'och qattqligining kichikligi va tolasining tuzilishi uni modda imkonini beradi.

Yog'ochning namligi uning fizik-mekanik xossalari ga ham ta'sir ko'rsatadi. Namlik (W, %) bo'yog'och g'ovskligidagi gigroskopik surva erkin suvlarning foiz darajasidir. Savda oqirilgan yog'ochning namligi eng katta hisoblanadi va u 200 % gacha bo'lishi mumkin. Yangi kesilgan yog'ochning namligi 100 % gacha bo'ladi. Omborlarda saqlash, tabiiy va sun'iy quritish jarayonida yog'ochning namlik darajasi 40, 25, 20 va 10 % ga tushiriladi. Namlik darajasi yog'och konstruksiyalari sifatiga ham ta'sir etadi.

Katta namlikdagi yog'ochlarni doimo surva tegib turadigan konstruksiyalar tayyorlashda ishlatish mumkin. 40 % gacha namlikdagi yog'ochlardan ochiq havoda turadigan konstruksiyalar tayyorlanadi. 25% gacha namligi bo'yog'ochlardan namligi yuqori bo'lgan yopiq konstruksiyalar tayyorlanadi. Namligi 20% gacha bo'lgan yog'ochlardan yelimlangan yog'och konstruksiyalaridan boshqa barcha turdagi konstruksiyalar tayyorlash mumkin. Namligi 8-12% gacha bo'lgan yog'ochlardan barcha turdagi yog'och konstruksiyalari, shu jumladan yelimlangan konstruksiyalar ham tayyorlanadi. Yog'ochning namligi 30% gacha oshirilganda yoki kamaytirilganda, uning qobiqlaridagi gigroskopik namlik hisobiga, yog'och elementlar o'lchami ortadi yoki kamayadi. Bunda qurish va shishish jarayonlari yuz beradi. Eng katta qurish va shishish jarayoni tolasarga ko'ndalang holatda yuz beradi va 4% gacha yetadi, tangensial yo'nalishda - yullik halqalariga parallel holatda 10% gacha yetadi. Tolalari bo'ylab qurish va shishish darajasining eng kichik qiymati 0,3% dan oshmaydi. Namlik 30% dan o'tib ketganda, erkin suv hisobiga, qurish va shishish jarayoni yuz bermaydi.

Yog'och elementining quritilish jarayonidagi deformatsiya rivojlanishi o'tkazib, sirtidan markazga tomon yuz beradi (6-rasm).



6-rasm. Yog'och materiallarining quritish jarayonidagi deformatsiyalar. 1 - kesim u'khanlarining kamayishi, 2 - yulishi, 3 va 4 - ko'ndalang va bo'ylama bo'yicha tub tashlashi.

Namlikning 0 dan 30% gacha bo'lgan chegarada o'zgarishi yog'och mustahkamligi va buzlilishiga ta'sir ko'rsatadi. Namlik bu chegaradan oshganda, yog'och mustahkamligi maksimal qiymatidan 30% gacha kamayadi. Namlikni 30% dan oshirishi esa mustahkamlikning kamayishiga olib kelmaydi.

Yog'ochning namligi har qanday bo'lishidan qat'iy nazar mustahkamlik va buzlilik ko'rsatkichlarini taqqoslash uchun standart namlik sifatida 12% qabul qilingan. Yog'och namunalarini tabiiy namlikdagi ($W=8-23\%$ gacha) mustahkamlik chegarasini, standart 12% namlikdagi mustahkamlik chegarasiga α -koeffitsiyentni hisobga olgan holda o'tkazish. Siqilish va egilishda α -ning qiymati 0,04 ga teng. Standart namlikdagi mustahkamlik chegarasi - σ_{12} , quyidagi formula yordamida aniqlanadi va mazkur formula namlik - $W=8-23\%$ gacha bo'lgan oraliqlarda o'rinlidir:

$$\sigma_{12} = \sigma_{\alpha} / (1 + \alpha (W - 12)) \quad (1.2)$$

Bu yerda: σ_{12} - standart 12% namlikdagi mustahkamlik chegarasi; σ_{α} - tabiiy namlikdagi mustahkamlik chegarasi, α - o'tkazish koeffitsiyenti (1-jadval); W - tabiiy namlik.

1-jadval. α -koeffitsiyentning qiymatlari

Kuchlarish	Barcha turdagi yog'ochlarni 12% namlikka keltirishdagi α ning qiymati
Tolalari bo'ylab siqilish	0,05
Statik egilish	0,04
Tolalari bo'ylab siljish va yorilish	0,03

Haroratning yog'ochga va uning isitilish o'tkazuvchanligiga ta'siri. Harorat ko'ruilganda mustahkamlik chegarasi va elastiklik moduli kamayadi va yog'ochning mo'rtligi oshadi. Masalan, qarang'ay yog'ochini siqilishdagi mustahkamlik chegarasi u 20 °C dan 50 °C gacha qindirilganda o'rtacha 70% gacha kamayadi, 100 °C gacha qindirilganda esa, boshlang'ich qiymatidan 30% gacha kamayadi.

t -haroratdagi yog'ochning mustahkamlik chegarasini, uning boshlang'ich 20°S dagi mustahkamlik chegarasi hamda to'g'rirovchi β -koeffitsiyentni hisobga olgan holda aniqlash mumkin:

$$\sigma_t = \sigma_{20} - \beta (t - 20), \quad (1.3)$$

bu yerda: σ_t - mavjud haroratdagi mustahkamlik chegarasi; σ_{20} - 20 °C haroratdagi mustahkamlik chegarasi; β - o'tkazish koeffitsiyenti (2-jadval); t - sinayotgan vaqtidagi mavjud harorat, °C.

Martiy haroratlarda yog'ochdagi namlik muzga aylanadi va namlik 25% gacha bo'lganda siqilishdagi mustahkamligi ortadi, lekin mo'rt bo'lib qoladi.

Yog'ochning harorat ta'siridagi deformatsiyasi o'schirgichli kengayish koeffitsiyenti bilan aniqlanadi. Yog'och tolalari bo'ylab aniqlangan bu koeffitsiyent juda kichik va u $5 \cdot 10^{-4}$ dan oshmaydi, o'se navbatida bu yog'och uylarni harorat choklarisiz qurish imkoniyatini beradi. Tolalariga ko'ndalanggi bo'yicha esa bu koeffitsiyent 7-10 marta kattadir.


2-jadval. (β) - to'g'rirovi koeffitsientning qiyamtlari

Yog'ochning turi	MPa			
	tolalar bo'ylab siqilishda	statik egilishda	Tolalar bo'ylab	
			siqish, yorilishda	cho'zilishda
Qarag'ay	3,5	4,5	0,4	4
Qora qarag'ay	2,5	3	-	-
Tilg'och	4,5	-	-	-
Oq qarag'ay	2,5	-	-	-
Oq qayin	4,5	-	-	-

Yog'ochning issiqlik o'tkazuvchanligi uning trobovchen-g'ovak tuzilishiga ega bo'lganligi hisobga, ayniqsa, tolalariga ko'ndalanggi bo'yicha kichikdir. Quruq yog'ochni tolalariga ko'ndalanggi bo'yicha o'rtacha issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti $\lambda = 0,14$ ga tengdir. Issiqlik o'tkazuvchanligi kam bo'lganligi uchun yog'och yengil trasey konstruksiyalar uchun ayniqsa material hisoblanadi. Yog'ochning issiqlik sig'imi katta, xususan, quruq yog'ochniki o'rtacha $S = 1,6$ ga tengdir.

Qurilish fanerasi - varaqli yog'och konstruksiyaviy material hisoblanadi. U toqsondagi yupqa qatlamlardan tashkil topadi. Har bir qatlam - shponning qalinligi o'rtacha 1 mm bo'lishi mumkin. Shponlar, asosan, oq qayin va tilg'ochdan olinadi. Shpon tolalari bir-biriga nisbatan o'zaro perpendikulyar joylashgan bo'ladi. Qurilish konstruksiyalarida yelimlangan va shimdirilgan faneralar qo'llaniladi.

Yelimlangan fanera yog'och-shpon qatlamlardan tashkil topadi (7-rasm), ular o'zaro suvga chidamli yelimlar bilan yelimlanadi (masalan, fenolformaldegidli-FSF). Shponlarni karbamidli yelim bilan yelimlash orqali o'rtacha suvga chidamli-FK turdagi faneralar olinadi. Bu turdagi faneralarni yuqori namlikka ega bo'lmagan xonalarda ishlatish tavsiya etiladi. Suvga chidamli faneralarni har qanday namlikdagi binolar konstruksiyalarida ishlatishga ruxsat beriladi. Yelimlangan faneralarning qalinligi 6-12 mm bo'ladi. Konstruksiyalarda eng ko'p qo'llanilayotgan fanera bu - yetti qatlamli faneradir. Uning qalinligi 8, 9, 10 va 12 mm, uzunligi 2440, 2135, 1525, 1220 mm, kengligi esa 1525, 1220 va 725 mm tashkil qiladi.



7-rasm. Qurilish fanerasi (qurumi): 1-bo'yama qatlamlar, 2-bo'yadlang qatlamlar.

Fanera varaq shaklida bo'lganligi uchun, undan yengil so-

mmali tem va devor yopma panellar, sig'inlar hamda qolplar tayyorlanmoqda.

Tashqi qatlamlari tolalari bo'ylab yelimlangan faneraning mustahkamligi ko'ndalangiga nisbatan yuqori, chunki bo'yama bo'ylab qatlamlar sari ko'ndalangiga nisbatan bittaga ortiq. Yelimlangan faneraning kesim tekisligi bo'yicha qirg'iridagi mustahkamligi yog'ochning tolalari bo'ylab yorilishdagi mustahkamligidan 2,5 marta ortiqdir.

Faneralar mustahkamligiga nuqsonlar ta'siri yog'ochdagi nisbatan kamdir. Suvga o'ta chidamli faneralar namligi 12% o'rnatilganida esa 15% ni tashkil qiladi. Faneraning birligi elastiklik moduli bilan xarakterlanadi hamda 8 asos va undan katta qalinlikdagi faneralar uchun tolalari bo'ylab yog'ochning 90% ni, tolalariga ko'ndalanggi bo'yicha esa 70% ni tashkil qiladi.

Shimdirilgan fanera ham xuddi shunday tuzilishga ega (yelimlangan fanera kabi), lekin uning tashqi qatlamlari nafaqat yelimlangan, balki ularga suvga chidamli, sintetik qirida o'rtilgan smola shimdirilgan bo'ladi. Bu turdagi faneraning qalinligi 3-18 mm, uzunligi 1500-2700 mm, kengligi 1200-1500 mm bo'ladi. Bu turdagi faneralar yelimlangan faneralardan o'ta yuqori suvga chidamli, mustahkamligi va maxsus noqulay namlik sharoitlarida qo'llanilishi bilan farq qiladi.

Yog'och konstruksiyalarini chirish va yonibdan himoya qilish. Chirish - yog'ochni oddiy organizmlar ta'sirida buzilishidir. Yog'och bu organizmlar uchun oziq-ovqat manba va o'zlashtirish ob'ekti. Yog'och va yog'och materiallarining biologik zararlanishlari juda katta iqtisodiy zarar keltiradi. Biologik zararlanishlarga bakteriyalarning bo'zi turlari, yog'ochni buzuvchi zamburug'lar, yog'och teshuvchi qurtlar, chumolilar va dengiz yog'och teshuvchilari - molyuskalarning bo'zi turlari kiradi. Hovirgacha bakteriyalarning yog'ochga ta'siri kam o'rganilgan. Ma'lum bir bakteriyalar yog'och tarkibidagi ayrim moddalarini olishga sabab bo'lib, ularni buzilishiga olib keladi. Bularning ta'sirida yog'och mustahkamligini asta-sekin yo'qotib beradi.

Eng ko'p tarqalgan yog'och zararlanishlari bu - zamburug'lar. Ular o'rmon, ombor va uy zamburug'larini kabi turlarga bo'linadi. O'rmon zamburug'i, asosan, o'sayotgan yog'och daraxtini zararlaysdi. Ombor zamburug'larini yog'och materialini saqlash jarayonida, uning yerga tegib turgan qismini zararlaysdi. Uy zamburug'larini esa yog'och materialini konstruksiya sifatida ishlatish jarayonida zararlaysdi va uning chirishiga sabab bo'ladi. Zamburug'lar $+3^{\circ}\text{C}$ dan $+45^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lgan haroratlarda va 18-20% namlikdan kam bo'lmagan holatlarda rivojlanib, yog'ochni chiratsi.

Qumursqalar - yog'ochning buzuvchilari hisoblanadi. Ular ham quruq, ham bo'l yog'ochning buzilishi va chirishiga olib kelishi mumkin.

Yog'och konstruksiyalarini chirishdan himoya qilishning ikki xil usuli mavjud: konstruktiv himoya usuli, kimyoviy himoya usuli. Chirishdan himoya qilishning konstruktiv usuli yordamida konstruksiyaning ekspanatsiya qilinishi uchun muhit yaratiladi va bu holatda konstruksiyaning namligi chirish sharoitidagi namlikdan oshib ketmaydi. Yopiq binolarda atmosferadan tashqaridagi yog'ingirchilik to'liq yeperadan o'tib ketmasligi, tunda nishablik bo'lishi, ichki suv chiqib ketish yo'llari bo'lishi ta'minlanadi. Yog'och konstruksiyalarini kapiyur namlikdan himoya qilish uchun, ular beton va g'isht devorlaridan beton qatlamli gidroizolyatsiya bilan ajratiladi. Xona ichidagi yog'och konstruksiyalari *PF-115*, *13K-175* va boshqa yog'och lak-bo'yqlari bilan himoya qilinadi. Yog'och konstruksiyalarida hosil bo'ladigan kondensatsiya namligidan himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu holatda konstruksiyaga suv bug'larini kirmasligi uchun xona tomonidan bug' zaifligich qo'yiladi. Asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalarni loyihalashda chok va yoriq joylar bo'linmasligiga o'riinish lozim. Chunki bu joylarda sovuq havoning turib qolishi va suv hosil bo'lishi - chirish jarayonini keltirib chiqarishi mumkin.

Agar konstruksiyaning ekspanatsiya qilish jarayonida namlanishi aniq bo'lsa, bunday holatlarda kimyoviy himoya usulidan foydalaniladi. Masalan, ko'prikl, minora va qoziq konstruksiyalarida, yog'och konstruksiyaga namlanishi mumkin. Chirishdan himoya qilishning kimyoviy usulida konstruksiyaga antiseptik moddalar surtilishi, shindirilishi yoki u bilan qoplanishi mumkin. Antiseptiklar ikki turga bo'linadi: suvda eriydigan va erimaydigan-mayli. Suvda eriydigan antiseptik - florli va kremniy florli natiriydir. Uning rangi va hidi yo'q. U yopiq turdagi binolarda ishlatiladi va odatlar uchun zararli emas. He'zi turdagi suvda eriydigan zararli antiseptiklar ham mavjud. Ularning ayrimlari odamlar uchun ham zararli. Mayli antiseptik suvda erimaydi, lekin sil zamburug' va bakteriyalar uchun zararli. Kuchli yopqiruvchi hidga ega bo'lib, odamlar sog'lami uchun ham zararli. Bu turdagi antiseptik moddalar ochiq turdagi inshootlar konstruksiyalarini himoyalashda, odamlar kam bo'ladigan joylarda, yer va suv ostidagi konstruksiyalarni chirishdan himoya qilishda ishlatiladi.

Yog'och konstruksiyalarini yonishdan himoya qilishning ikki usuli bor: konstruktiv va kimyoviy. Yog'och yonuvchan qurilish materiali hisoblanadi. Uning olovbardoshlik chegarasi nisbatan kichikdir. Olovbardoshlik chegarasi - yuqori birliklarda o'lchanadi. Yirik ko'ndalang kesimli yog'och konstruksiyalari katta olovbardoshlik chegarasiga ega. Masalan, 17×17 sm ko'ndalang kesimli, qirrali yog'och to'sin - bitta 10 MPa kuchlanish bilan yuklangan holatda, 40 daqiqa mobaynida olovga bardosh beradi.

Yog'och konstruksiyasini yonishdan konstruktiv himoya qilish usulida - konstruksiyaga yuqori haroratli g'itlardan uzatqoqqin qo'yiladi. Bu esa yog'ochning yonishiga qulay harorat bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Hatto oddiy suvqan ham olovbardoshlik chegarasining ortishiga sabab bo'ladi.

Himoya qilishning kimyoviy usulida antipiren moddasi qo'llanadi. Yog'ochni yonishi uchun ikki narsa bo'lishi kerak: harorat va kislorod. Antipiren harorat ko'tarilganda shindirilgan yog'och tarkibidan chiqib, yog'och element sirtida plyonka hosil qiladi va bu bilan konstruksiyani kisloroddan izolyatsiyalaydi, natijada yonish jarayoni to'xtaydi.

Zarur bo'lgan holatlarda antipiren antiseptik modda bilan birgalikda va bir vaqtda yog'och konstruksiyaga elementlariga shindiriladi.

1.2. Konstruksiyaviy plastmassalar

Polimerlar - plastmassalarning asos hisoblanadi. Ular yuqori molekulyar birikmalar hisoblanadi va bir xil strukturadagi elementlar, juda ko'p zvenolardan tashkil topgan. Bu zvenolar bir-biri va kovalent bog'lovchilar bilan uran zanjiriga bog'langan hoki va plastik fazoviy zanjirini hosil qiladi. "Polimer" - grekcha so'z bo'lib, "poli" - ko'p, "mer" - qism degan ma'noni beradi. "Monomer" so'zi esa, "mono" - bitta, "mer" - qum, ya'ni "bitta qism" degan ma'noni anglatadi. Polimerlar ikki yo'l bilan olinadi: polimerizatsiya va polikondensatsiya. Polimerizatsiya - bu bir nechta monomer molekulalarning birikib, bitta makromolekula hosil qilishidir. Bunday holatda jarayon ma'lum harorat va bosimda beradi va hech qanday past molekulyar moddalar ajralib chiqmaydi.

Polikondensatsiya - turli xildagi monomer molekulalarning birikishi natijasida yuqori molekulyar modda hosil bo'lishidir. Bunda past molekulyar moddalar ajralib chiqadi, masalan suv, spirt va boshqalar.

Bog'lovchi smolaning turiga qarab, plastmassalar ikki turga bo'linadi: termoreaktiv va termoplastik. Polimerizatsiya yo'li bilan olingan polimerlar - termoplastik materiallar. Termoplastlar - polivinilbrend, polietilen, polistrol, polipropilen, poliamid, akril va boshqa termoplastik smolalar, ya'ni qindirilganda yumshaydigan va plastik holatga kiradigan, sovutilganda yana qotadigan materiallardir. Termoreaktiv plastmassalar - fenolformaldegidli, poliefirli, epoksiidli, karbamidli va boshqa termoreaktiv smolalar asosida olinadigan plastmassalardir. Bog'lovchi modda barchasida - smolalardir. Konstruksiya va materiallar uchun, asosan, poliefirli, fenolformaldegidli, epoksiidli, mochevina, melaminformaldegidli va kremniy organik smolalar ishlatiladi.

Poliefirli smola - termoreaktiv hisoblanadi, uning qovushqoqligi past, yuqori haroratlarda qotiladi. Qotayotganda uchuvchan gazlar chiqmaydi, mexanik xususiyatlari yuqori. Suv, kislota, benzin, moy va boshqa moddalar ta'siriga chidamli. Qurilishda *PN-1*, *PN-2*, *PN-3*, *PN-4*, *PN-15*, *PN-6* turlari ko'p ishlatiladi. Yoriq'lik o'tkazadigan stekloplastikalarda *PNM-2*, *PN-1M* va *PNM-8* turdagilari ishlatiladi.

Fenolformaldegidli smola - fenol va formaldegidni katalizator ta'sirida kondensatsiyalanishi natijasida hosil bo'ladi. Bu mahsulotlar ishqorbardoshlik va mexanik xususiyatlarining yuqori qilib bilan ajralib turadi. Fenolformaldegidli yog'och, plastik, fenolalar ishlab chiqarishda qo'llanadi. U qindirilganda tезда qotadi va erimaydigan holatga kiradi, neft mahsulotlari ta'siriga chidamli, qotayotganda undan uchuvchan gaz va suv ajralib chiqadi.

Epoksidli smola - ko'p atomli fenollarning bir-biriga ta'siri natijasida olinadi (*alfenoloprenan*). Bu smola ko'proq stekloplastik va yelimlar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Mochovina va melaminoformaldegidli smolalar mochovina va formaldegidni zif ishori yoki neytral muhitda kondensatsiya qilish natijasida olinadi. Bu smolalarning qotishi organik kislota, nordon tuz va efirlar ta'sirida amalga oshiriladi. Melamin va formaldegidni kondensatsiyalash natijasida melaminoformaldegid hosil bo'ladi.

Mochevinoformaldegidli (*karbonidli*) smola rangsiz, issiqbardosh va yorug'bardoshdir. Kremniyorganik smola tarkibida organik moddalar bilan birga noorganik kremniy moddalar ham bor. Qurilishda kremniy organik smola lak, etral, bo'yovlar sifatida qo'llanadi. To'ldiruvchi - bog'lovchi bo'yovning sifatini kamaytiradi va buning natijasida tunnari pasayadi. To'ldiruvchilar - uzluksiz va uzluqli oynatolalar, oynagazlama, asbest tolasi, yog'och tolasi, qirindi, talk.

Plastifikator - plastmassalarning mo'rtligini kamaytiradi, egiluvchanligini oshiradi va sevuqbardoshligini oshiradi. Plastifikatorlar - tributilfosfat, dibutilftalat, trikresilfosfat. Stabilizatorlar plastmassalarning fizik - mexanik xususiyatlarini saqlash imkoniyatini oshiradi.

Antistatik - polimerlarning dielektrik xususiyatlarini oshiradi (*qurum, grafit, metall kushonlari*).

Plastmassalarning afzalliklari: a) konstruksiya og'irligini kamaytiradi; b) transport va montaj ishlari hajmini kamaytiradi; v) ko'taruvchi transport jihozlarning quvvatini kamaytirish imkoniyatini beradi; g) bino va inshootlarning ishonchligini oshiradi; d) metallsiz konstruksiyalar qo'llash mumkin bo'ladi (ayniqsa, kimyoviy agresiv muhitda bo'lgan inshootlarda).


Kamchiliklari: a) uzoq muddatli chidamliligining kamligi, eskirishi; b) mustahkamligining pastligi va deformatsiyalanuvchanligining yuqoriligi; v) issiqbardoshligining pastligi; g) yoyilishning yuqoriligi; d) tiklikning kamligi (10 MPa).

1828 - 1886-yillarda yashagan rus olimi A. Butlerov tomonidan organik moddalar tashlash nazariyasining yaratilishi munosabati bilan polimerlar kimyosi rivojiga imkon berdi. XX asrning 30-yillarida kimyo sanoati ishlab chiqarayotgan sintetik smola va plastmassalarning miqdori juda ko'paydi.

Hozirgi kunda plastmassalar bilan bir qatorda noorganik materiallar: alumin, laklangan po'lat, asbestosement ham keng ishlatilmoqda. Stekloplastik ikki asosiy komponentdan tashkil topgan: sintetik bog'lovchi va oyna tolalari-to'ldiruvchi. Qotmagan smolaga oyna tolalari - to'ldiruvchi qo'shiladi, undan keyin smola qotirilish, stekloplastik hosil qilinadi. Stekloplastiklarda ko'proq termoeaktiv smolalardan foydalaniladi. Oyna tolalari - armaturalash elementi hisoblanib, stekloplastikning mustahkamligini, zarba ta'siriga bardoshligini oshiradi. Stekloplastiklar, maydalangan oyna tolalari hisobiga, izotom material hisoblanadi. Oyna tolalarni xosik joylashganligi hisobiga barcha yo'nalishlardagi ularning mustahkamligi bir xil bo'ladi, ya'ni 1500 kg/cm^2 gacha zichlikka va cho'zilishda 150 MPa

mustahkamlikka egadir. Yorug'lik o'tkazadigan stekloplastik tiniq polietir termoeaktiv smoladan va maydalangan oyna tolalardan (*massasi bo'yicha 25% ni tashkil qiladi*) tashkil topgan. Uning yorug'lik o'tkazish koefitsiyenti yuqori - 0,85 ni tashkil qiladi. Yorug'lik yoyib uratiladi va xosari tekis yoritilishiga sabab bo'ladi. Bu stekloplastiklar rangsiz yoki talab qilingan rangda bo'lishi mumkin.

Tiniq stekloplastik to'ldirsimon va tekis varoq shaklida qalinligi $\delta=1,5-2,5 \text{ mm}$, kengligi 1,5 metrgacha, uzunligi 6 metrgacha chiqarilishi mumkin. To'lgilar qadami $h_1=60-200 \text{ mm}$, balandligi $h_2=14-54 \text{ mm}$ va u bo'ylarni yoki ko'ndalang bo'yicha joylashishi mumkin (8-rasm).



8-rasm. Stekloplastikalar:

- a - stekloplastik-1; b - stekloplastik-2 tekis;
- v - stekloplastik-2 to'ldirsimon;
- 1 - uzluksiz oyna tolasi;
- 2 - maydalangan oyna tolasi;
- 3 - ko'ndalang to'lgilar;
- 4 - bo'ylama to'lgilar;
- 5 - to'lgilar kesirli
- ($h_1=60-200 \text{ mm}$, $h_2=14-54 \text{ mm}$, $\delta=1,5-2,5 \text{ mm}$).

Takrorlash uchun savollar

1. Qurilish konstruksiyalari qaysi yog'ochlardan tayyorlanadi?
2. Yog'ochning qanday turlari mavjud?
3. Yog'och materialining nechta turi bor?
4. Namluk yog'och mustahkamligiga qanday ta'sir etadi?
5. Harorat yog'och mustahkamligiga qanday ta'sir qiladi?
6. Faneraning qanday turlari mavjud?
7. Yog'ochni chirish va yonishdan amashning qanday yo'llari bor?
8. Antiseptik va antipiren nima?
9. Plastmassaning tarkibi qanday?
10. Plastmassaning afzalligi va kamchiliklari nima?
11. Yog'ochning afzalligi va kamchiliklari nima?
12. Plastmassaning qaysi turlari qurilishda ko'p ishlatiladi?

2-BOB

Yog'och elementlar

2.1. Chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblash

Chegaraviy holat - shunday holatki, unda tashqi va ichki kuchlanishlar ta'siri natijasida bo'lgan konstruksiyalardan foydalanish umuman mumkin emas.

Yog'och va plastmassa konstruksiyalari ikki guruh chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblanadi: yuk ko'tarish qobiliyati va deformatsiyalanishi bo'yicha.

Birinchi chegaraviy holat - eng xavfli hisoblanadi. Unda konstruksiya buzilishi yoki ustuvorligini yo'qotishi natijasida yuk ko'tarish qobiliyatini yo'qotadi. Normal va o'rnatma kuchlanishlarning maksimal qiymatlari, materiallarning minimal hisobiy qarshilik ko'rsatish qiymatidan o'tib ketmase, bu holat ru'y bermaydi. Bu shart quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$\sigma \text{ yoki } r \leq R \quad (2.1)$$

bu yerda: σ - normal kuchlanish, r - o'rnatma kuchlanish, R - hisobiy qarshilik.

Ikkinchi chegaraviy holat nisbatan xavfsizroqdir. Bu holatda konstruksiya normal holatda foydalanishga yaroqsiz hisoblanadi. Agar maksimal nisbiy egilish ruxsat etilgan chegaraviy qiymatidan o'tib ketmase, bu holat ru'y bermaydi. Bu shart formula yordamida quyidagicha ifodalanadi:

$$f/l \leq [f/l] \quad (2.2)$$

bu yerda: f va $[f]$ - haqiqiy va ruxsat etilgan egilishlar; l - uzunligi.
I hisoblash ishlarini bajarishdan asosiy maqsadi: birinchi va ikkinchi chegaraviy holatlarga yo'l qo'ymaslikdir.

Yog'och konstruksiyalarini birinchi chegaraviy holat bo'yicha hisoblashda hisobiy yuklamadan, ikkinchi chegaraviy holat bo'yicha hisoblashda esa me'yoriy yuklamadan foydalaniladi. Professor A. S. Streltskiy ixtiyoriy muhandislik hisobining asosiy tizimini ishlab chiqqan. Bunda xavfsizlik va buzilmaslik sharti bajarilishi kerak. Shu tizimga asosan chegaraviy yuklama konstruksiyaning eng kichik yuk ko'tarish qobiliyatidan kichik bo'lishi kerak. Ikkinchi chegaraviy holat bo'yicha hisoblashda, yog'ochning elastiklik moduli tolalari bo'ylab $YE = 10000 \text{ MPa}$, tolalariga ko'ndalang yo'nalishi bo'yicha esa $YE_{\perp} = 400 \text{ MPa}$ ga tengdir. Siljish moduli yog'och tolalari bo'ylab va tolalariga ko'ndalang yo'nalishi bo'yicha 500 MPa ga tengdir.

Konstruksiyaga ta'sir qiladigan yuklamalar quyidagilardir:

1. Doimiy yuklamalar — konstruksiya barcha elementlarining xususiy og'irligidan hosil bo'ladigan yuklamalar.

2. Vaqtinchalik yuklamalar — qor va shamol ta'siridan hosil bo'ladigan yuklamalar.

3. Maxsus yuklamalar — zilzila, portlash, kuchi inersiya va turli dinamik ta'sirlar natijasida hosil bo'ladigan yuklamalar.

Ikkinchi va uchinchi chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblashda me'yoriy va hisobiy yuklamalarni aniqlash kerak bo'ladi. Bu hisoblashlar uchun zarur bo'lgan yuklamalar doimiy, vaqtinchalik va maxsus yuklamalar asosida aniqlanadi.

Doimiy me'yoriy yuklamalar elementlarning hajmiy og'irligi va o'lchamlari orqali aniqlanadi.

Vaqtinchalik me'yoriy qor va shamol yuklamalari qorilish joyining iqlimiy ma'lumotlariga qarab, qorilish me'yorlari va qoidolari (QMQ) xaritalari yordamida aniqlanadi.

Misol. Toshkent shahri uchun qor va shamol yuklamalarini aniqlang?

QMQdan Toshkent shahri qor bo'yicha I-rayon va yuklamasi $0,5 \text{ kN/m}^2$ ga teng. Shamol ta'siri bo'yicha III rayon va hujumi bo'yicha $0,38 \text{ kN/m}^2$ ga teng.

Hisoblashda yuqoridagi yuklamalar tarkibiga kiruvchi odamlar va jihozlardan tushadigan yuklamalar ta'siri ham e'tiborga olinadi. Masalan, ta'simlarni o'rnatish paytida ishchilar ta'simlar ustiga chiqib ularni o'rnatadi, ya'ni odamlarning konstruksiya elementlariga og'irligi tushadi. Bundan tashqari, ko'pgina inshootlarda yuk ko'tarishga mo'ljallangan o'rnatma kranlardan foydalaniladi. Ushbu jihozlarning og'irligi ham hisoblashda nazarda tutiladi.

Hisoblashda konstruksiyaning xususiy taqribiy og'irligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$q^* = \frac{g^* + S^*}{\frac{1000}{K_{\text{so}}} - l}$$

bu yerda:

q^* - konstruksiyaning taqribiy me'yoriy xususiy og'irligi;

g^* - konstruksiyaga tushayotgan tashqi doimiy yuklamalarning me'yoriy qiymati;

S^* - vaqtinchalik me'yoriy qor yuklamasi;

K_{so} - konstruksiyaning xususiy og'irlik koeffitsienti (konstruksiya turiga bog'liq bo'lgan koeffitsient);

l - enligi.

Doimiy me'yoriy yuklamalarni hisoblashga doir misollar:

1. Ibr qatlam ruberoiddan ($0,03-0,05 \text{ kN/m}^2$) doimiy me'yoriy yuklama tushadi.

2. Qalindigi 2 sm bo'lgan sement qorishmasidan tushadigan yuklama:

$$0,02 \text{ m} \cdot 2000 \text{ kg/m}^3 = 40 \text{ kg/m}^2 = 0,4 \text{ kN/m}^2$$

2000 kg/m^3 - sement qorishma hajmiy og'irligidir.

3. O'ldami $10 \times 15 \times 300$ sm bo'lgan yog' ochning me'yoriy og'irligini aniqlash; ko'ndalang kesimi - $h \times b = 0,1 \times 0,15$ m; uzunligi - $l = 3$ m; yog' ochning xajmiy og'irligi qarag'ay uchun - 500 kg/m^3 ga teng.

U holda

$$g_{\text{yog}} = 0,1 \cdot 0,15 \cdot 3 = 0,225 \text{ kN ga teng.}$$

Yuk maydoniga qarab, undan 1 m^2 yuzaga tushadigan yuklama aniqlanadi.

$$\frac{0,225 \text{ kN}}{1 \text{ m}^2} = 0,225 \text{ kN/m}^2 \text{ ga teng bo'ladi.}$$

Hisobiy yuklamalar me'yoriy yuklamalarni γ - ishonchlilik ko'effitsiyenti ko'paytirish orqali aniqlanadi:

$$q^{\text{hr}} = q^{\text{m}} \cdot \gamma$$

bu yerda:

q^{hr} - hisobiy yuklama;

q^{m} - me'yoriy yuklama;

γ - ishonchlilik ko'effitsiyenti.

Hisoblashda doimiy yuklamalar uchun ishonchlilik ko'effitsiyenti - γ ning qiymati 1,1 dan 1,3 gacha olinadi. Agar doimiy yuklamani o'zgarish chegarasi juda kichik bo'lsa, $\gamma = 1,1$ olinadi va aksincha, o'zgarish chegarasi katta bo'lsa $\gamma = 1,3$ olinadi. Masalan, beton elementlar uchun $\gamma = 1,1$ olish eng maqbul hisoblanadi, sochiluvchan tuproq yoki sement kabi materiallardan tushadigan doimiy yuklamalarni o'zgarish diapazoni katta bo'lgani uchun 1,2 yoki 1,3 ko'effitsiyenti olish maqsadga muvofiqdir.

Vaqtinchalik qor yuklamalarining o'zgarish chegarasi katta bo'lgani uchun γ ning qiymati 1,4 dan 1,6 gacha olinadi:

$$q^{\text{m}}/s^{\text{m}} \leq 0,8 \text{ bo'lsa, } \gamma = 1,6, \text{ va}$$

$$\text{agar } q^{\text{m}}/s^{\text{m}} > 0,8 \text{ bo'lsa, } \gamma = 1,4 \text{ olinadi.}$$

Doimiy yuklama tekis teng tarqalgan yoki yig'ilgan holda ta'sir qiladi.

Vaqtinchalik qor yuklamasi tom sirti bo'yicha to'g'ri to'rtburchak yoki uchburchakli memlar shaklida ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari qor yuklamasi tom yuzasining shakliga qarab ham o'zgarishi mumkin. «Yuklamalar va ta'sirlar» QMQ ilovalarida turli tom sxemalari uchun qor yuklamasining hisobiy sxemalari berilgan va bino tomining ko'rinishiga qarab, tegishli variantlardan biri tanlanadi. Shamolning ta'siri bino yoki inshoot balandligi va quriladigan hududga bog'liqlidir. Yerdan Z balandlikdagi shamolning o'rtacha me'yoriy qiymati quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$H^{\text{m}} = W_0 \cdot k \cdot c \quad (2.4)$$

bu yerda: W_0 - shamol bosimining QMQdagi me'yoriy qiymati; k - shamol balandligi bo'yicha o'zgarishi hisobga oladigan ko'effitsiyent; c - aerodinamik ko'effitsiyent (bino yoki inshootning shakliga qarab o'zgaradigan ko'effitsiyent, QMQ dan olinadi).

Hisobiy shamol yuklamasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$H^{\text{hr}} = H^{\text{m}} \cdot \gamma = 1,4 \cdot H^{\text{m}} \quad (2.5)$$

bu yerda: H^{hr} - hisobiy shamol bosimi, $\gamma = 1,4$ - vaqtinchalik shamol yuklamasi uchun ishonchlilik ko'effitsiyenti.

Birinchi chegaraviy holatda hisobiy yuklamadan, ikkinchi chegaraviy holatda esa me'yoriy yuklamadan hisoblashda foydalaniladi.


2.2. Yaslit kesimli yog'och va plastmassa elementlarini hisoblash

Markaziy cho'zilish. Markaziy cho'zilishga ishlaydigan yog'och konstruksiyalari eng zaf kesimi bo'yicha hisoblanadi. 9-rasmda cho'zilishdagi namunaning o'ldamlari, cho'zilish chagrammasi va normal kuchlanish epyuroni ko'rsatilgan. Markaziy cho'zilishga ishlovchi konstruksiyalar mustahkamligi quyidagi formula yordamida tekshiriladi:

$$\sigma = \frac{N}{A_y} \leq R_n \cdot m_n \quad (2.6)$$

bu yerda: σ - normal kuchlanish; N - hisobiy cho'zuvchi kuch; A_y - ko'ndalang kesim yuzasi; R_n - cho'zilishdagi hisobiy qarshilik; $m_n = 0,8$ - barcha kesimda kuchlanishning to'planishini hisobga oladigan ko'effitsiyent.

Agar yog'och tolalari birligi va maydonini bir xil desak, u holda 1-1 kesimdagi (10-rasm) barcha tolalar bir xil yuklangan bo'ladi. 2-2 qirg'indagi barcha tolalar teskari yuklangan, shuning uchun 2-2 qirg'indagi tolalar qo'shim to'ldiriladi va ular kuchliroq yuklanadi. Shunday qilib 3-3 kesimda cho'zuvchi kuchlanishlari taqalishi notekis bo'ladi. Teskilar orasidagi S masofa hisobiga bu notekislik asta-sekin to'g'rilanadi. Agar S masofa kichik bo'lsa, u holda to'g'rilanish yuz bermaydi, chunki 4-4 kesimda ikkita teskik joylashgan va bu




9-rasm. Cho'ziluvchi element:
a - defleksiyalash grafiqi va namuna;
b - tekislik sxemalari va kuchlanish epyurani

joyda bir qism tolalar yana qirg'iladi, qo'shni kuchli yilg'ingon tolalar yuqorida kuchliroq qo'shimcha yuklanadi. Buning natijasida alohida tolalardagi zo'riqlashni cho'zilishdagi mustahkamlik chegarasigacha yetishi o'z navbatida tolalarning ushlab olib kelishi mumkin. Ushlab eng zaif joylarda yuz bergani uchun buzilish qiribayri bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, zaif kesim yuzasini aniqlashda qo'shni zaif kesimlar orasidagi S masofani hisobga olish kerak bo'ladi:

agar S masofa 20 sm dan kichik bo'lsa, $S < 20\text{ sm} \rightarrow A_{\text{uz}} = b(h-3d)$;

agar S masofa 20 sm dan katta yoki, teng bo'lsa $S \geq 20\text{ sm} \rightarrow A_{\text{uz}} = b(h-2d)$;

Agar zaif kesim bo'yicha mustahkamlikka tekshiriladigan bo'lsa (teshik yoki o'yiq joylar), hisobiy qarshilik $R_s = 0,8$ ga qisqartiriladi. Bunda yog'ochning cho'zilishiga hisobiy qarshiligi $R_s = 8\text{ MPa}$ ga teng bo'ladi ($R_s = 8 + 100\text{ MPa}$).



10- rasm. Elementning markaziy cho'zilishi.

1-1 kesimda tolalar bir til kuchlangan, 2-2 kesimda teshikdagi tolalar qirg'ilgan, bu qismdagi kuchlanish boshqa kesilmagan tolalarga uzatilgan, 3-3 kesimda cho'zuvchi kuchlanishlar bir til bo'lmaydi, 4-4 kesimda tolalar yana qo'shimcha zo'riqlashlari ehtiyojli.

Agar zaif kesim bo'lmasa, u holda $\sigma_s = 1$ ga teng bo'ladi:

$$\sigma = \frac{N}{A} \leq R_s \quad (2.7)$$

Cho'zuvchi elementlar ko'ndalang kesimini aniqlashda yuqoridagi formuladan foydalaniladi. Bunda bo'yilma kuch - N va R_s cho'zilishdagi qarshiliklar ma'lum deb olinadi.

$$A_s = \frac{N}{R_s} \quad (2.8)$$

Agar ko'ndalang kesim yuzasi ma'lum bo'lsa, cho'ziluvchi elementni ko'tariladigan markaziy cho'zuvchi kuchning nazariy qiymatini quyidagi formuladan aniqlash mumkin:

$$N = A \cdot R_s \quad (2.9)$$

Markaziy cho'ziluvchi elementlar deformatsiya-egilish bo'yicha tekshiriladigan.

Misol. Agar cho'ziluvchi kuchning miqdori $N = 160\text{ kN}$ ga teng bo'lsa, cho'ziluvchi sterjen ko'ndalang kesimini 1-toifa yog'ochdan aniqlang. Sterjenda ikki qator diametri $-1,8\text{ sm}$ bo'lgan teshiklar bo'lib, zaif kesimda ikkita teshik mavjud.

Yechilishi. Kesimning zaiflashganini hisobga oladigan koeffitsientni e'tiborga olgan holda hisobiy qarshilik qiymatini hisoblaymiz:

$$m_s = 0,8; R_s = 0,8 \cdot 10 = 8\text{ MPa}$$

Talab qilinadigan ko'ndalang kesim yuzasi

$$A_s = \frac{N}{R_s} = \frac{0,16}{8} = 0,02 = 200\text{ sm}^2$$

$$N = 160\text{ kN} = 0,16\text{ MN}$$

Ko'ndalang kesim yuzasini qabul qilamiz: $15 \times 17,5\text{ sm}$. Zaif kesimni e'tiborga oladigan bo'lsak, $A = (h - d \cdot n) \cdot b = (17,5 - 1,8 \cdot 2) \cdot 15 = 208\text{ sm}^2 = 0,0208\text{ m}^2$

$$\text{Ta'zir qiladigan kuchlanish: } \sigma = \frac{N}{A} = \frac{0,16}{0,0208} = 7,7\text{ MPa} < 8\text{ MPa}$$

Markaziy siqilish. Siqilishga ustunlar, havonalar, formaning yuqori belbog'i va alohida sterjenlari hamda boshqa konstruktiviyalar ishlaydi. Siqilgan sterjenning ko'ndalang kesimlarida bir xilda normal kuchlanish hosil bo'ladi. Yog'och siqilishga cho'zilishga nisbatan ishonchli ishlaydi.


11- rasmde siqilishga tekshirish uchun standart namuna va siqilishdagi deformatsiya diagrammasi, sinish holati va hisoblash nemalari ko'rsatilgan.

Yog'och mustahkamlik chegarasining yarmigacha elastik ishlaydi va deformatsiyaning o'sishi qo'sunyatiga bo'yungan holda ortib boradi (shu bilan o'zib borishga yaqin ko'rinibetadi). Undan keyin kuchlanishning ortishi bilan deformatsiya kuchlanishga nisbatan tez o'tadi. Namunalarning sinishi 40 MPa kuchlanishlarda yuz beradi. Bu holat plastik, devorlardagi mahalliy ustravertlikning yo'qotilishi natijasida yuz beradi. Siqilishdagi hisobiy qarshilik $R_s = 15\text{ MPa}$ ga teng. Yog'och turlari va toifalariga qarab bu qiymat $0,8Q$ dan olinadi.

O'lchamlari 15 sm dan katta bo'lgan brulalar ishonchli ishlaydi, chunki ularda qirg'ilgan tolalar miqdori kamroq. Shuning uchun bunday brulalarni hisoblashda siqilishdagi hisobiy qarshilik $R_s = 15\text{ MPa}$, ko'ndalang kesim doirasidan yog'ochlarni hisoblashda ushbu siqilishdagi hisobiy qarshiligi $R_s = 16\text{ MPa}$ deb olinadi.

$$\sigma = \frac{N}{A_{\text{net}}} \leq R_s \quad (2.10)$$

bu yerda N — hisobiy siquvchi kuch, R_s — hisobiy siqilishdagi qarshilik, A_{net} — sof ko'ndalang kesim yuzasi.



11 - rasn. Siqiluvchi element

a - namuna va deformatsiyalanishning grafiki; b - boqilish va kuchlanish epyuras; ishlab chiqarilgan; v - uchlarini mahkamlash turlari va hisobiy uzunliklar; g - egilishga moyillik γ ga nisbatan ustuvorlik ko'rsatkichi; j - grafiki.

Mustahkamlikka $l \leq 7b$ qisqa elementlar tekshiriladi. Agar $l > 7b$ bo'lsa, konstruktiv ustuvorlikka ham tekshiriladi. Konstruktiv ustuvorligi kritik yal bilan aniqlanadi va uning nazariy qiymati 1757-yilda Eytler tomonidan aniqlangan:

$$N_{cr} = \frac{\pi^2 \cdot E \cdot J}{l^2} \quad (2.11)$$

Sterjenning siqilish va ustuvorligi yo'qotqandagi mustahkamligi, ko'ndalang kesim shakli va yuzasiga, uzunligi va uchlarining mahkamlanishiga bog'liq bo'lib ustuvorlik ko'rsatkichi - φ bilan hisobga olinadi. Ba'zan ustuvorlik ko'rsatkichi bo'ylama egilish ko'rsatkichi deb ham ataladi. Bo'ylama kuch ta'siridagi yog'ol element mustahkamlik va ustuvorlik bo'yicha quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\sigma = \frac{N}{\varphi \cdot A_{se}} \leq R_s \quad (2.12)$$

Agar zaif kesim yuzasi 25% A_{se} dan katta bo'lmasa, u holda $A_{se} = A_{se}$ ga teng olinadi.

Agar 25% A_{se} dan katta bo'lsa, $A_{se} = \frac{4}{3} A_{se}$ ga teng bo'ladi. Simmetrik zaif kesimlarda va ular sterjen yoniga chiqqan bo'lsa

$A_{se} = A_{se}$ ga teng bo'ladi.

Ustuvorlik ko'rsatkichi - φ , hisobiy uzunlikka - l_p , kesimning inersiya radiusiga - i , egiluvchanlikka - $\lambda = \frac{l_p}{i}$ bog'liq bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

a) proporsionallik chegarasidan tashqarida

$$\lambda \leq 70 \text{ holda } \varphi = 1 - 0,8 \cdot \left(\frac{\lambda}{100} \right)^2 \quad (2.13)$$

b) proporsionallik chegarasi, yani elastiklik bosqichida

$$\lambda > 70 \text{ bo'lgan holda } \varphi = \frac{3000}{\lambda^2} \quad (2.14)$$

Bu yerda 0,8-yog'och uchun (fanera bo'lsa - 1 ga teng); 3000-yog'och uchun (fanera bo'lsa - 2500, stekloplastik bo'lsa - 1097).

Sterjenlarning hisobiy uzunligi uchlarining mahkamlanish holatiga bog'liq bo'lib, quyidagi qiymatlarga teng olinadi:

1. Agar kuch sterjen uchlariga bo'ylama qo'yilgan bo'lsa, ikkala uch qisq shartirli mahkamlangan holda - $l_p = l$ ga teng; bir uchi biki mahkamlangan ikkinchi uchi erkin holda - $l_p = 2,2 l$, ikkala uchi biki mahkamlangan holda - $l_p = 0,65 l$, bir uchi biki ikkinchi uchi shartirli mahkamlangan holda - $l_p = 0,8 l$ (11-rasn).

2. Agar kuch teng tarqalgan bo'ylama bo'lsa:

ikkala uchi shartirli mahkamlangan holda - $l_p = 0,73 l$,

bir uchi biki mahkamlangan, ikkinchi uchi erkin holda bo'lsa - $l_p = 1,2 l$ ga teng bo'ladi.

Konstruktiv elementlarini egiluvchanligi chegaraviy qiymatlardan oshib ketmasligi kerak (3-jachal).


Egiluvchi elementlar - to'sinlar, to'shama taxtalar va qoplamalar, sarnovlar, pencllar, stropilalar eng ko'p tarqalgan yog'och konstruktiv elementlar. Egiluvchi elementlarda ta'sir qilayotgan ko'ndalang kuch ta'sirida egiluvchi moment - M , qisqiruvchi kuchlar - Q paydo bo'ladi va ular qurilish mexanikasi uslublari yordamida aniqlanadi.

Egilish ta'sirida egiluvchi elementning ko'ndalang kesimlarida normal kuchlanish - σ hosil bo'ladi. Normal kuchlanish egiluvchi elementning ko'ndalang kesimi balandligi bo'yicha nozik tarqaladi. 12-rasmda egilishga tekshirish uchun standart namuna va egilishdagi deformatsiya, egiluvchi moment va kuchlanishlarning diagramma hunda epyuralari ko'rsatilgan.

Egiluvchi elementlarning hisobiy yuklamalar bo'yicha mustahkamligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

3-jadval. Chegaraviy egiluvchanlik

Konstruktsiya elementlari	Chegaraviy egiluvchanlik - λ_{max}
Siqilgan belbog'lar, tayanch havonlari va fermaing tayanch ustunlari, ustunlar	120
Ferma va boshqa tarmoqli konstruksiyalarning qolgan siqiluvchi elementlari	150
Bog'lovchilarni siqiluvchi elementlari	200
Vertikal tekislikdagi fermaing cho'ziluvchi belbog'lar	150
Ferma va boshqa tarmoqli konstruksiyalarning qolgan cho'ziluvchi elementlari	200
Elektr olatish havo yo'li tayanchlari uchun	
Asosiy elementlar (ustun, taglik, tayanch xavonlari)	150
Qolgan elementlari	175
Bog'lovchilar	250



12-rasm. Egiluvchi element: a-egilish grafiqi va namuna; b-ishlash sxemasi va ogiruvchi moment epyurasi; v-buzilish sxemasi va normal kuchlanish epyurasi; g-qiyshiq egilishdagi ishlash sxemasi va kuchlanish epyurasi.

$$\sigma = \frac{M}{W} \leq R_{\sigma} \quad (2.15)$$

bu yerda W - ko'ndalang kesimning qarshilik momenti, M - ogiruvchi moment, R_{σ} - hisobiy egilishdagi qarshilik, σ - normal kuchlanish.

Egiluvchi elementlarni ikkinchi navli yog'ochlardan tayyorlash tavsiya etiladi. U holda hisoblashda $R_{\sigma} = 13 \text{ MPa}$ olinadi.

Ko'ndalang kesim o'lchamlari 13 sm va undan katta bo'lganda esa $R_{\sigma} = 15 \text{ MPa}$ olinadi. Ko'ndalang kesim dairesimon yog'och konstruksiyalarida esa $R_{\sigma} = 16 \text{ MPa}$ qabul qilinadi.

Kam mas'uliyatli elementlarni uchinchi navli yog'ochlardan ham tayyorlash mumkin. Ularni hisoblashda $R_{\sigma} = 8.5 \text{ MPa}$ olinadi (vassalar). Ko'ndalang kesim to'g'ri to'rtburchak holat uchun W ning qiymati quyidagi formula yordamida

$$\text{da aniqlanadi: } W = \frac{b \cdot h^2}{6}, \text{ dairesimon ko'ndalang kesim uchun } W = \frac{d^3}{10}$$

Egiluvchi yog'och elementlar ko'ndalang kesimining o'lchamlari quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$W_1 = \frac{M}{R_{\sigma}}; h = \sqrt{\frac{6 \cdot W_1}{b}} \quad (2.16)$$

$$b = \frac{6 \cdot W_1}{h}; d = \sqrt{10 \cdot W_1};$$

W_1, h, b, d - talab qilinadigan qarshilik momenti, ko'ndalang kesim holatdagi, uni har doim ko'ndalang kesim diametri.

Ko'ndalang kesim o'lchamlari ma'lum bo'lsa, element ko'tara oladigan chegaraviy hisobiy yuklamalarning ham qiymatini yuqoridagi keltirilgan asosiy formulalar yordamida aniqlash mumkin.

Masalan, bir oralig'i shartiga tayangan to'rtinchi uzunligi l ko'ndalang kesim o'lchamlari b, h ko'tara oladigan teng tarqalgan yuklamaning miqdori quyidagicha:

$$W = \frac{bh^2}{6}; M = W \cdot R_{\sigma}; q = \frac{8 \cdot M}{l^2} \quad (2.17)$$

Egiluvchi elementlar ikkinchi chegaraviy holatga ham me'yoriy yuklamalar

bo'yicha hisoblanadi (4-jadval): $\frac{f}{l} \leq \left[\frac{f}{l} \right]$

Teng tekis tarqalgan yuklama bo'lgan holat uchun:

$$\frac{f}{l} = \frac{5}{384} \cdot \frac{q \cdot l^3}{EI} \leq \left[\frac{f}{l} \right] \quad (2.18)$$

bu yerda: $\frac{f}{l}$ - haqiqiy nisbiy egilish, $E = 10^4 \text{ MPa}$; $\left[\frac{f}{l} \right]$ - ruxsat etilgan

nisbiy egilish; to'g'ri to'rtburchak kesimli yuzta uchun $J = \frac{b \cdot h^3}{12}$ ga teng.

Agar to'rtburchak nisbiy egilishi katta bo'lsa, unda ko'ndalang kesimni katta-lashtirish, kesimni egilish bo'yicha aniqlashi mumkin:

$$J = \frac{5 \cdot q \cdot l^3}{384 \cdot \left[\frac{f}{l} \right] \cdot E} \quad (26) \quad h = \sqrt{\frac{12 \cdot J}{b}} \quad (2.19)$$

Urinma kuchlanishlar bo'yicha mustahkamlik quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\tau = \frac{Q \cdot S}{J \cdot h} \leq R_{qov} \quad (2.20)$$

bu yerda: τ - urinma kuchlanish, Q - qirg'ochi kuch, S - kesimning statik momenti; J - kesimning inersiya momenti; h - kesimning hisobiy eni; R_{qov} - yori-lishdagi hisobiy qarshilik.

Egiluvchi elementlar mustahkamligini hisoblashdan tashqari, ustuvorligi ham tekshiriladi. Ayniqsa, ko'ndalang kesim eni kichik bo'lsa:

$$\sigma_{qe} = \frac{M}{\varphi_x \cdot W} \leq R_{qe} \quad (2.21)$$

bu yerda:

φ_x - egiluvchi elementlarning ustuvorlik koeffitsiyenti.

$$\varphi_x = 140 \cdot \frac{b^2}{l_{ux} \cdot h} \cdot K_{\alpha} \cdot K_{\beta} \quad (2.22)$$

Bu yerda: K_{α} - hisoblash uzunligidagi moment epyurasi shakliga bog'liq bo'lgan koeffitsiyent; K_{β} - koeffitsiyentni egiluvchi qismi tekisligida kuchay-tiruvchi bo'lgan holatda kiritiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_{\beta} = 1 + \left[0,142 \cdot \frac{l_{ux}}{h} + 1,76 \cdot \frac{h}{l_{ux}} + 1,4\alpha - 1 \right] \frac{m^2}{m^2 + 1} \quad (2.23)$$

Bu yerda: α - markaziy burchak (rad), aylanasimon chiziqli elementni l_{ux} qismi-na aniqlaydi (to'g'ri chiziqli elementlar uchun $\alpha = 0$ ga teng); m - kuchaytirilgan taq-talar soni (chokkadagisizlarni tashqari).

Elementlarning solqiligi chegaraviy qiymatidan o'tib ketmasligi kerak (4-jadval).

4-jadval. Chegaraviy solqililar

Konstruktsiyalar elementlari	Chegaraviy maksimal egilish
Qavatlararo yopma to'sini	1/250
Chordiq ora yopma to'sini	1/250
Tom yopma: sarrov, stropilalar	1/200
Konsol to'sirlar	1/150
Ferma, yelimlangan to'sirlar (konsoldan boshqalan)	1/300
Plitalar	1/250
To'shama va parjara taxtalar	1/150
Panelar va faxxerka elementlari	1/250

Qiyshiq egilish. Agar ta'sir qiluvchi yuk yo'nalishi, to'sin ko'ndalang kesim o'qlari yo'nalishi bilan mos tushmasa, konstruktsiya qiyshiq egilish holatida ishlaydi va uni birmunchi qadar chegaraviy holatida normal kuchlanishlar bo'yicha quyidagi formula yordamida hisoblanadi (l/a -ram):


$$\sigma = \frac{M_x}{W_x} + \frac{M_y}{W_y} \leq R_{\sigma} \quad (2.24)$$

bu yerda: M_x, M_y - egiluvchi momentning tashkil etuvchilari, W_x, W_y - qarshilik momentining x va y o'qlari bo'yicha tashkil etuvchilari.

Ikkinchi qavat: chegaraviy holatda deformatsiyalanishi bo'yicha esa quyida-gi formula yordamida hisoblanadi:

$$f = \sqrt{f_x^2 + f_y^2} \leq f_{\text{max}} \quad (2.25)$$

Bu yerda: f_x, f_y - solqilikning x va y o'qlari bo'yicha tashkil etuvchilari.



13-rasm. Qiyshiq egilish: a - to'g'ri to'rtburchak ko'ndalang kesimli elementni qiyshiq egilish holatida yuklanishning taqribiy; b - kvadrat ko'ndalang kesimli elementlarda o'qdan eng chet nuqtasigacha bo'lgan masofani aniqlash; q - qiyshiq burchagi, q_x, q_y - yuklanishning x va y o'qlari bo'yicha taqribiy e'tvichlari.

Qiyshiq egilishda ko'ndalang kesimning eng kichik qiymatlari:

mustahkamlik bo'yicha $\frac{h}{b} = \text{ctg } \alpha$; deformatsiya bo'yicha esa

$\frac{h}{b} = \sqrt{\text{ctg } \alpha}$ dan aniqlanishi mumkin.

Ko'ndalang kesim kvadrat shakldagi elementlar qiyshiq egilishga ishlamaydi. Chunki, ular zo'riqlashning ta'sir tekisligida deformatsiyalanadi, lekin shunga qaramasdan kuchlanish qiyshiq egilish formulasi yordamida aniqlanadi (13b-rasm):


$$\sigma_q = \frac{M_x + M_y}{W} \leq R_q \quad (2.26)$$

Siqilib - egiluvchi elementlar. Eguruchi moment va markaziy qo'yilgan bo'yama siquvchi kuch ta'sir qilgan holatlarda elementlar siqilib - egilishga ishlaydi, ya'ni nomarkaziy siqilib yuzaga keladi. Eguruchi moment nomarkaziy qo'yilgan siquvchi kuchdan va ko'ndalang yuklamadan hosil bo'ladi.

Siqilib-egiluvchi yog'och konstruksiyalarini hisoblashda chegaraviy kuchlanishlar nazariyasi qo'llaniladi. Bu nazariya professor K. S. Zavrilyev tomonidan taklif etilgan. Bunga asosan chegaraviy kuchlanish hisobiy qaratilishga teng bo'lgan holatda, sterjning yuk ko'tarish qobiliyati yo'qoladi. Mazkur nazariyaning ustuvorlik nazariyasiga nisbatan aniqlik darajasi kichik, lekin u sodda yechim beradi.

Sterjning birligi chekli bo'lganligi uchun, u eguruchi moment ta'sirida egiladi.

14-rasmida ko'ndalang va bo'yama kuchlardan hosil bo'ladigan eguruchi momentlar va kuchlanishlarning epyuralari keltirilgan.



14-rasm. Siqilib egiluvchi elementning egilishi:
a - ishlab olinadigan va eguruchi moment epyuralari;
b - normal kuchlanishlar epyuralari.

Bu holda markaziy qo'yilgan siquvchi kuch eksentrisitetga ega bo'ladi va u sterjning deformatsiyasi qiymatiga tengdir. Buning natijasida qo'shimcha moment hosil bo'ladi. Bo'yama kuchdan hosil bo'ladigan qo'shimcha eguruchi moment ta'sirida deformatsiya yanada ortadi. Eguruchi moment va egilish bir qancha vaqt davomida o'tib

bersadi va keyin yo'qoladi.

Sterjning umumiy egilishi va egri chiziqli tenglamasi noma'lum, shuning uchun chegaraviy kuchlanishlar formulasi yordamida σ_q ni beradigan aniqlab bo'lmaydi.

$$\sigma_q = \frac{N}{F} + \frac{M_x}{W} + \frac{N \cdot y_{me}}{W} \quad (2.27)$$

Umumiy eguruchi moment

$$M_x = M_y + N \cdot y \quad (2.28)$$

(27) va (28)-tenglamalarda uchta noma'lum σ_q, y, M lar mavjud. Shuning uchun yana bitta qo'shimcha tenglama tuzish lozim.

Ma'lumki, har qanday egri chiziqli qator ko'rinishda ifodalash mumkin. Bu ma'lum chegaraviy shartlarga javob berishi kerak. Bunday shartlarga quyidagi trigonometrik qator javob beradi:

$$y = f_1 \cdot \frac{\sin \pi x}{l} + f_2 \cdot \frac{\sin 2\pi x}{l} + f_3 \cdot \frac{\sin 3\pi x}{l} + \dots \quad (2.29)$$

Simmetrik yuklama ta'sir qilgan holatda qatorning birinchi hadi 95-97% aniqlik beradi. U holda qatorning birinchi hadi bilan chegaralanish ham bo'ladi.

$$y = f_1 \cdot \frac{\sin \pi x}{l} \quad (2.30)$$

Lekin qo'shimcha f_1 noma'lum yuzaga keladi. Qarishib mo'ntakadan ma'lumki,

$$\frac{d^2 y}{dx^2} = -\frac{M_1}{EI} \quad (2.31)$$

Egri chiziqli tenglamasini ikki marta differensiallash orqali quyidagi ifodani hosil qilamiz,

$$\frac{d^4 y}{dx^4} = f_1 \cdot \frac{\pi^2}{l^2} \cdot \sin \frac{\pi \cdot x}{l} \quad (2.32)$$

Yuqoridagi 2.31. va 2.32. tenglamalarni tenglasak, quyidagi tenglik hosil bo'ladi:

$$-\frac{M_1}{EI} = f_1 \cdot \frac{\pi^2}{l^2} \cdot \sin \frac{\pi \cdot x}{l} \quad (2.33)$$

Endi M_1 va y lar qiymatlarini statjening umumiy egiluvchi momentini aniqlash formulalariga qo'yamiz va bir necha aylantirishlarni amalga oshiramiz. Bunda

$$\frac{\pi^2 \cdot E \cdot J}{l^2} = N_{cr}; \quad x = \frac{l}{2} \text{ da } \sin \left(\frac{\pi x}{l} \right) = 1 \text{ ga teng.}$$

simmetrik yuklangan holatda $y_{max} = f_1$ ga teng bo'ladi.

$$f_1 = \frac{M_1}{(N_{cr} - N)} \text{ yoki } y_{max} = \frac{M_1}{(N_{cr} - N)} \quad (2.34)$$

Aniqlangan bog'liqlik kuchlanishini aniqlash masalasini hal qilishga yordam beradi:

$$\sigma_1 = \frac{N}{A} + \frac{M_1}{W} + \frac{N \cdot M_1}{(N_{cr} - N) \cdot W} \quad (2.35)$$

A, W larni A_{cr} va W_{cr} larga aylantirib, aniqlik kiritilgandan so'ng

$$\sigma_1 = \frac{N}{A_{cr}} + \frac{M_1}{W_{cr} \left(1 - \frac{N}{N_{cr}} \right)}$$

$1 - \frac{N}{N_{cr}} = \xi$ bilan belgilasak, $\sigma_1 = \frac{N}{A_{cr}} + \frac{M_1}{W_{cr} \cdot \xi}$, hosil bo'ladi va $\xi = 0 + 1$ gacha bo'lgan qiymatlarni qabul qiladi.

$$N_{cr} = \varphi \cdot R \cdot A_{cr} \text{ ga teng}$$

$$\text{Agar } M_{det} = \frac{M_1}{\xi} \text{ va } \xi = 1 - \frac{\lambda \cdot N}{3000 \cdot A_{cr} \cdot R} \text{ bo'lsa,}$$

$$\text{simmetrik yuklangan holat uchun } \sigma_1 = \frac{N}{A_{cr}} + \frac{M_{det}}{W_{cr}} \leq R, \text{ hosil bo'ladi}$$

$$\text{asimmetrik yuklangan holatda esa, } M_{det} = \frac{M_{sim}}{\xi_{sim}} + \frac{M_{sim \cdot as}}{\xi_{sim \cdot as}},$$

bu yerda: ξ_{sim} , $\xi_{sim \cdot as}$ - simmetrik va teskari simmetrik bo'yama egilish shakllaridagi egiluvchanlikni qiymatida aniqlanadigan koeffitsiyentlar.

Siqilib-egiluvchi elementlardagi qirg'uvchi kuchni quyidagi formula yordamida aniqlaymiz.

$$Q_{cr} = \frac{d}{dx} \left(\frac{M_1}{\xi} \right) = \frac{1}{\xi} \cdot \frac{dM_1}{dx} = \frac{Q_1}{\xi} \quad (2.37)$$

Siqilib-egiluvchi elementlarning egilishini aniqlashda egiluvchi momentning ta'sirini hisobga olish kerak bo'ladi:

$$f = k \left(\frac{P_n \cdot l^3}{EJ \xi} \right), \quad (2.38)$$

Siqilib-egiluvchi elementi ustuvorlikka ham tekshirishda kerak:

$$\frac{N}{\varphi \cdot R \cdot A_{cr}} + \left(\frac{M_{det}}{\varphi \cdot R_{cr} \cdot W_{cr}} \right)^n \leq 1 \quad (2.39)$$


bu yerda: $A_{cr} = I_n$ uchunligidagi eng katta ko'ndalang kesim yuzasi; $n = 2$ - agar cho'zilish zonasida deformatsiyalanish zonasidan boshqa tekisliklarda mahkamlanmagan bo'lsa; $n = 1$ - agar mahkamlangan bo'lsa; R_{cr} - maksimal qarshilik momenti.

$$\varphi_1 = \frac{3000}{\lambda^2}; \quad \varphi_2 = 140 \cdot \frac{b^2}{l_{cr} \cdot h} \cdot K_n \cdot K_s \quad (2.40)$$

λ - egilishga moyillik koeffitsiyenti;


Cho'zilib egiladigan elementlar hisobi. Cho'zilib egiladigan elementlarga egiluvchi momentdan tashqari, markaziy cho'ziluvchi kuch ham ta'sir etadi. 15-rasm-da markaziy bo'lmagan cho'zilish holatida ishlatilgan to'sim, ko'ndalang va bo'yama cho'ziluvchi kuchlardan hosil bo'ladigan egiluvchi momentlar qiyuralari hamda kesimda hosil bo'ladigan kuchlanish qiyuralari keltirilgan.

Ushbu elementlar normal kuchlanishlar bo'yicha quyidagicha hisoblanadi: agar zaifliklar 20 mm dan kichik masofalarda joylashgan bo'lsa, hammasi bitta kesimga yig'ib olinadi. Normal kuchlanishlar bo'yicha kuch ta'siridan egrovchi momentning kamayishi e'tiborga olinmagan holatlarda esa quyidagi formula yordamida aniqlanadi:



15-rasm. Cho'ziluvchi-egrovchi element: a - jildish oqsasini va egrovchi moment epyuralini, b - normal kuchlanishlar epyuralini.

16-rasm. Cho'ziluvchi-egrovchi elementda hosil bo'ladigan egilishlar: $f \cdot x = 0$ dan l gacha oqsida hosil bo'ladigan to'liq egilishlar; f_1 ko'ndalang kuch - q dan hosil bo'lgan maksimal egilish; $f_{x=l}$ bo'yama kuchdan hosil bo'lgan qo'shimcha momentni hisobga olgan holdagi to'liq egilish.



Egilish natijasida ko'ndalang kuch - q dan egrovchi moment hosil bo'ladi, cho'zilish natijasida esa teskari ishora bilan qo'shimcha egrovchi moment hosil bo'ladi. Sterjening umumiy egilishi va egilish chiziqlarining tenglamasi nomi bilan, shuning uchun chegaraviy kuchlanishlar formulasi orqali kuchlanishlarni aniqlab bo'lmaydi:

$$\sigma = \frac{N}{A} + \frac{M \cdot R}{W \cdot R_0} \leq R_0 \quad (2.42)$$

Cho'ziluvchi-egrovchi yog'och elementlarni hisoblashda bo'yama kuchdan hosil bo'ladigan egrovchi momentni hisobga olish. Cho'ziluvchi-egrovchi elementlarda ko'ndalang kuchdan hosil bo'ladigan egrovchi momentlar tashqari, markaziy qo'yilgan bo'yama cho'ziluvchi kuch ta'sirida zuriqlash - qo'shimcha egrovchi moment hosil bo'ladi (16-rasm).

$$\sigma_x = \frac{N_x}{A} + \frac{M_x}{W} - \frac{N_x \cdot f_{\text{max}}}{W} \quad (2.43)$$

bu yerda: M_x - ko'ndalang kuchdan hosil bo'lgan moment, f_{max} - sterjning maksimal deformatsiyasi; W - qarshilik momenti, N_x - cho'ziluvchi bo'yama kuch, A - ko'ndalang kesim yuzasi, σ_x - cho'zilishdagi normal kuchlanish.

Sterjda hosil bo'ladigan umumiy egrovchi momentning qiymati


$$M(x) = M_0 - N_{\text{ax}} \cdot f \quad (2.44)$$

Masalan: yechilish tartibi siqilib-egrovchi elementlarni hisoblash tartibi bilan bir xildir, faqat bu holda bo'yama kuchdan hosil bo'ladigan egrovchi momentning qiymati ayirib tashlanadi.

Har qanday egri chiziqlarni analitik qator yordamida ifodalash mumkin ekanligini esga olaylik.

$$y = f_1 \cdot \sin \pi x/l + f_2 \cdot \sin 2\pi x/l + f_3 \cdot \sin 3\pi x/l + \dots$$

Ushbu qatorning geometrik interpretatsiyasi 17-rasmida keltirildi.



17-rasm. Tug'anomomlik: $f_1 \cdot \sin(\pi x/l)$ qatorini yoyilish geometrik interpretatsiyasi: 1,2,3 - qator hadlarining nomlari, f_1, f_2, f_3 - qator hadlarining maksimal ordinatalari

Ta'sir qilayotgan tashqi yuklar va simmetrik va qatorning birinchi hadi birinchi shakli beradi. Shuning uchun qatorni 1-hadi bilan cheklamaymiz (2.30-formulaga qarang):

$$y = f_1 \cdot \sin \pi x/l \quad (2.33)$$

tenglamadan $M(x)$ ni topamiz:

$$M(x) = -f_1 \cdot EJ \frac{\pi^2}{l^2} \sin \frac{\pi \cdot x}{l} \quad (2.45)$$

f_1 ga teng bo'lgani uchun (2.45) va (2.30)-larni (2.43)ga qo'yamiz:

$$-f_1 \cdot EJ \frac{\pi^2}{l^3} \sin \frac{\pi \cdot x}{l} = M_0 - N_{00} \cdot f_1 \sin \frac{\pi \cdot x}{l}$$

Agar $x = \frac{l}{2}$ da $\sin \frac{\pi \cdot x}{l} = \sin \frac{\pi \cdot l}{2 \cdot l} = 1$ ni va

$$\frac{\pi^2 EJ}{l^3} = N_{00}$$
 ekanligini hisobga olsak,

$$-f_1 N_{00} = M_0 - N_{00} \cdot f_1$$
 hosil bo'ladi

bu tenglamadan M_0 ni topamiz:

$$M_0 = N_{00} \cdot f_1 - f_1 \cdot N_{00} = f_1 (N_{00} - N_{00})$$

Solqilik f_1 ni qiymatini quyidagi formuladan aniqlashimiz mumkin:

$$f_1 = \frac{M_0}{N_{00} - N_{00}} \quad (2.46)$$

Agar $f_1 = f_{\text{max}}$ teng bo'lishini hisobga olsak, u holda cho'zilishdagi normal kuchlanishning formulasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\sigma_{00} = \frac{N_{00}}{A} + \frac{M_0}{W} - \frac{N_{00} \cdot M_0}{W(N_{00} - N_{00})} = \frac{N_{00}}{A} + \frac{M_0}{W} \left(1 - \frac{N_{00}}{(N_{00} - N_{00})} \right) \quad (2.47)$$

Demak, cho'zilib-egiluvchi elementlarda hosil bo'ladigan normal kuchlanish quyidagi formula yordamida aniqlanishi kerak, bunda cho'zuvchi kuch egilishga qarshilik ko'rsatadi va kesimda hosil bo'ladigan egiluvchi moment qiymatini kamaytiradi:

$$\sigma_{00} = \frac{N_{00}}{A} + \frac{M_0}{W} \left(1 - \frac{N_{00}}{(N_{00} - N_{00})} \right) \quad (2.48)$$

Uni soddalashtirish natijasida tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:


$$\sigma_{00} = \frac{N_{00}}{A} - \frac{N_{00} \cdot M_0}{W(N_{00} - N_{00})} \quad (2.49)$$

Demak, cho'zilib-egiluvchi yog'och elementlarni birinchi guruh chegaraviy holat bo'yicha hisoblashlarda (2.49)- formuladan foydalanish mumkin va u iqtisodiy jihatdan samara beradi, ya'ni bu formula cho'zuvchi kuchdan teskari ishora bilan hosil bo'lgan momentni to'la hisobga oladi.

Yog'ochni ezilishga hisoblash. Yog'ochni ezilishi yog'och element sirtiga perpendikulyar siquvchi kuch ta'sir qilgan holatda yuz beradi. Ko'p hollarda ezilishda hosil bo'ladigan kuchlanish tekis tarqalgan bo'ladi. Ezilish - bu yuzaning siqilishi bo'lib, u umumiy yoki mahalliy bo'lishi mumkin. Umumiy ezilishi yog'och element yuzasining hammasi bo'yicha siquvchi kuch ta'sir qilgan holda, mahalliy ezilish esa yuzaning qismiga ta'sir qilgan holda hosil bo'ladi. Ezilishdagi mustahkamlik va deformatsiyalanuvchanlik ezilish burchagiga bog'liqdir.

Ezilish burchagi - α , yog'och tolasi va ezuvchi kuch yo'nalishi orasidagi burchakdir. Agar $\alpha = 0^\circ$ bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri tolalari bo'ylab siqilishga ishlaydi. Bu holdagi yog'ochning ezilishdagi hisobiy qarshiligi $R_{00} = 13$ MPa yoki 15 MPa ga teng bo'ladi. Tolalariga ko'ndalang $\alpha = 90^\circ$ dagi ezilishdagi yog'och tolalari eng noqulay sharoitda ishlaydi va katta deformatsiyalanish yuz beradi. Yog'ochni tolalariga ko'ndalang umumiy ezilishdagi qiymati eng katta, ko'ndalang ezilishdagi hisobiy qarshiligi esa eng kichik bo'ladi va u $R_{90} = 1,8$ MPa ga tengdir. Tayanch yuzalaridagi ezilish umuman olganda konstruksiyaning ishlashiga ta'sir qilmaydi va ko'ndalang ezilishdagi hisobiy qarshilik $m = 1,67$ ishlash sharoiti koeffitsiyentiga ko'paytiriladi ($R_{00} = 3$ MPa).

18- rasmda eziluvchi element uchun standart namuna, uning deformatsiyalanish diagrammasi, kuch burchak ostida ta'sir qilgan holatlarda ezilishdagi normal kuchlanishlar epyuralarining ko'rinishlari va ezilishdagi hisobiy qarshilikni kuchni ta'sir burchagiga bog'liqlik diagrammasi keltirilgan.



18-rasm. Eziluvchi elementlar: a) deformatsiya grafiqi va namuna; b) ezilish stresslari va kuchlanish epyuralari; v) burchakka nisbatan ezilishdagi hisobiy kuchlanish grafiqi.

Tolalarga ko'ndalang mahalliy ezilishda qo'shni yuklanmagan yuzadagi tolalar ham ezilish deformatsiyasiga qarshilik ko'rsatadi, ya'ni deformatsiyani kichik bo'lishiga yordam beradi. Yuklangan yuzaga ta'sir uzunlikka ham bog'liqdir. Uzunlik - l qancha kichik bo'lsa, ta'siri shuncha katta bo'ladi. Bunda ezilishdagi hisobiy qarshilik quyidagi empirik formula yordamida aniqlanadi.

$$R_{\text{max}} = R_{\text{ex}} \frac{R_{\text{ex}}}{1 + 8/(L_e + 1.2)} \quad (2.50)$$

Qo'shni yuklanmagan yuzani o'zining ezilgan yuzi uzunligi va element qalinligidan kichik bo'lmaydigan kerak.

Cho'zilishda, bilt shaybasi tagidagi yog'ochning ezilishiga atrofdagi yuzalar ham yordam beradi va ezilish burchagi 60° dan katta bo'lgan holda ezilishdagi hisobiy qarshilik $n = 2.2$ ishlash sharoiti ko'rsatayotgani ko'paytiriladi ($R_{\text{ex}} \alpha = 40 \text{ MPa}$). Qiya α - burchak ostida ezilishdagi hisobiy qarshilik quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$R_{\text{ex}} = \frac{R_c}{1 + (R_c/R_{\text{ex}} - 1) \sin^2 \alpha} \quad (2.51)$$

Birikmalar ezilishdagi hisobiy qarshilik yuqoridagi formulalar yordamida ishlash sharoitini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Erituvchi elementlarni hisoblash quyidagi formula yordamida bajariladi:

$$\sigma = \frac{N}{A} \leq R_{\text{ex}} \quad (2.52)$$

bu yerda: σ - normal kuchlanish; N - bo'y lama kuchi; A - ezilish yuzasi; R_{ex} - α - burchak ostida ezilishdagi hisobiy qarshilik.

Yuqoridagi formula yordamida ezilishga ishlaydigan yuzani talab qilingan qiymatini ham aniqlash mumkin.

Yog'ochni yorilishga hisoblash. Yog'ochdagi yorilish, tolalari bo'y lab bo'y lama tekisliklarda yuz berishi mumkin. Yorilishdagi zo'riqish - T ta'arida yog'ochda yorilish va urinma kuchlanish hosil bo'ladi. Yorilishdagi yog'ochning mustahkamligi, yog'och tolali bo'lganligi uchun ham juda kichikdir. Yog'ochdagi tolalar bog'lanishi zaifdir, shuning uchun osongina yog'och mo'rti $\tau = 6,8 \text{ MPa}$ o'rtacha kuchlanishlarda yoriladi.

Egishda, egiluvchi elementlarni yorilishga maksimal qirg'ovchi kuch - $Q/8$ ta'ariga quyidagi formula yordamida hisoblanadi:


$$\tau = \frac{Q \cdot S}{J \cdot b} \leq R_{\text{ex}} \quad (2.53)$$

bu yerda: S - neytral o'qqa nisbatan yoriluvchi yuzaning statik moment


($S = \frac{b \cdot h^2}{8}$), Q - maksimal qirg'ovchi kuch, J - umumiy yuzaning inersiya moment

($J = \frac{b \cdot h^3}{12}$); R_{ex} - yorilishdagi hisobiy qarshilik ($R_{\text{ex}} = 1,6 \text{ MPa}$); b - kesimning eni.

19-rasm elementlarda urinma kuchlanishlarning hosil bo'lishi, qirg'ovchi kuch va urinma kuchlanish qiyasolari keltirilgan.




19-rasm. Yoriluvchi elementda: a - egilishdagi yorilish; b - vaddi shunday: bir tomonlama yoriluvchi kuchlardan; v - vaddi shunday: ikki tomonlama yoriluvchi kuchlardan.



Birikmalarni yorilishga hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\tau = \frac{T}{A} \leq R_{\text{ex}}^{\text{y}} \quad (2.54)$$

bu erda: τ - urinma kuchlanish; T - yorilishdagi zo'riqish; A - yorilish yuzasi; R_{ex}^{y} - yorilishdagi o'rtacha hisobiy qarshilik.



$$R_{\text{ex}}^{\text{y}} = \frac{R_{\text{ex}}}{1 + \frac{\beta - 1}{e}} \quad (2.55)$$

bu yerda: R_{ex}^{y} -

2, 1 MPa - hisobiy maksimal yog'ochni yorilishdagi qarshiligi; l_{y} - yorilish maydoni uzunligi; e - yorilish zo'riqish eksentrisiteti; $\beta = 0,25$ - yorilishda zo'riqish bir tomonlama va $\beta = 0,125$ - ikki tomonlama bo'lgandagi ko'rsatkichlar.

2.3 Ko'ndalang kesim yuzasi o'zgaruvchan sterjenlarning turg'unligi

Umumiy holda sterjenning birligi $EI = EI(x)$ va bo'y lama kuch $P = P(x)$ kuch o'zgaruvchi funktsiyalar bo'lgan holda elastik sterjenning muvozanat holati tenglamasi

$$(EY')'' + (PY')' = q \quad (2.56)$$

analitik yechimga ega bo'lmaydi. Bunday hollarda kritik (chegaraviy yoki qaltir) yukning qiymatini aniqlashning taqribiy usullaridan foydalaniladi. Ana shunday usullardan biri energetik usuldir. Usulning mazmuni shundaki, sterjenning solqilik chiqiqi taqriban

$$Y(x) \approx f\eta(x) \quad (2.57)$$

ko'rinishda olinadi.

Bu yerda: $\eta(x)$ -sterjenning chegaraviy shartlarini qanoatlantiruvchi noma'rum funksiya; f -kattaligi no'nsiz bo'lgan paramet.

Boshlang'ich holatidan juda kichik qiyshaygan sterjen uchun ikkinchi darajali cheksiz kichik aniqlikdagi potentsial energiya formulasini aniqlaymiz.

U_1 -ichki kuchlarning potentsial energiyasini sterjenning o'qini cho'zilmaydigan va siqilish deformatsiyasi yo'q deb faraz qilib, egilish energiyasi sifatida quyidagicha yozamiz,

$$U_1 = \frac{1}{2} \int_0^l \frac{M^2}{EI(x)} dx \quad (2.58)$$

Materiallar qeshiligi faradan ma'lumki, $\frac{M}{EI} = Y''$ bundan

$$M = EY'' \text{ kelib chiqadi.} \quad (2.59)$$

(2.59) ni (2.58) ga qo'yisak

$$U_1 = -\frac{1}{2} \int_0^l EI(x)(Y'')^2 dx \quad (2.60)$$

hosil bo'ladi:

bu yerda, l -sterjenning uzunligi, Y -ning solqiligi.

Bo'y lama P kuchining potentsial energiyasi,

$$U_2 = \frac{1}{2} \int_0^l P(Y')^2 dx \quad (2.61)$$

formula orqali hisoblanadi. U holda to'la energiya

$$U = U_1 + U_2$$

yoki

$$U = -\frac{1}{2} \int_0^l (EI(Y'')^2 - P(Y')^2) dx \quad (2.62)$$

formula orqali hisoblanadi. (2) ni (7) ga qo'yisak

$$U = 0.5 f^2 \int_0^l (EI(x)(\eta'')^2 - P(\eta')^2) dx \quad (2.63)$$

20-qismdagi 2-shakilda ko'rsatilgan yuklanganlik holati uchun quyidagicha belgilash kerak,

$$U = 0.5 \cdot G \cdot f^2 \quad (2.64)$$

bu yerda $G = \int_0^l (EI(\eta'')^2 - P(\eta')^2) dx$ formidagi ega bo'lamiz.

Berilgan sistema muvozanatda bo'lishi uchun:

$$\frac{dU}{df} = Gf = 0$$

bo'lishi kerak. Turg'unlik sharti esa

$$\frac{d^2U}{df^2} = G > 0$$

bo'lishi kerak, ya'ni potentsial energiya funksionalining qabariqli postga qaratilgan bo'lishi kerak. Shunday qilib turg'unlik sharti:

$$\int_0^l (EI(\eta'')^2 - P(\eta')^2) dx > 0 \quad \text{yoki} \quad \int_0^l P(\eta')^2 dx < \int_0^l EI(\eta'')^2 dx$$

ko'rinishga keladi. Sterjen o'q bo'y lab bo'y lama kuch P -const bo'lgan hol uchun,


$$P < \frac{\int_0^l EI(\eta'')^2 dx}{\int_0^l (\eta')^2 dx} \quad (2.65)$$

formula hosil bo'ladi. Shu narsa ayerki, η funksiyaning qabul qilishi mumkin bo'lgan ko'rinishlarning barchasida (2.64) shart o'rinni bo'lsa berilgan sterjen turg'un muvozanat holatida bo'lish. Funksiyaning P - min qiymatini aniqlovchi formula sterjenning haqiqiy turg'un holati formulasiga mos keladi, ya'ni

$$P_{\text{uz}} = \frac{\int EI(\eta')^2 dx}{\int (\eta')^2 dx} \quad (2.66)$$

Bino monolit devor konstruksiyasining turg'unligi. Ma'lumki devorning uzunligiga perpendikular kesim trapetsiya shaklida bo'ladi. Agar devorning uzunligini cheksiz deb faraz qilinsa, devorning kuchlanishligi haqidagi masalani elastik nazariyasining tekis masalasiga keltirish mumkin.

20-rasmda ko'rsatilgan devordan fikrni qirib olingan ABSD - A₁B₁S₁D₁ o'zgaruvchan kesimli steyenning turg'unligi haqidagi masalani ko'rib chiqamiz.



20-rasm. 1-shakt: monolit devor va undan fikrni qirib olingan steyen memeni;
2-shakt: hisoblash uchun devordan ajratib olingan steyenning ko'rinishi va o'lchamlari.

$s = \text{const}$; $h(x)$ - ko'ndalang kesimning balandligini ifodalovchi chiqiqi funksiya.

Ko'ndalang kesimning inersiya momenti

$$I(x) = \frac{bh^3}{12}.$$

Ko'ndalang kesimning balandligini $h = c_1 + c_2x$ ko'rinishda olsak, c_1 va c_2 larni chegaraviy shartlardan topamiz.

$$\left. \begin{array}{ll} x=0 & \text{da} \quad h=a \\ x=l & \text{da} \quad h=b \end{array} \right\} \quad (2.67)$$

a - devor asosining kengligi,

b - devor yuqori qismi kengligi,

l - devor balandligi,

huni (2.67) ga qo'yamiz.

$$\left. \begin{array}{l} a = c_1 \\ b = c_1 + c_2 l \end{array} \right\} \quad \text{hisob bo'ladi}$$

bundan $c_1 = a$; $c_2 = \frac{a-b}{l}$.

U holda $h = a - \frac{a-b}{l}x$ (2.68)

hisob bo'ladi.

Demak $J(x) = \frac{c \left(a - \frac{a-b}{l}x \right)^3}{12}$; (2.69)

hisoblang o'qning shaklini

$$y = a_0x + a_1x^2 + a_2x^3 + a_3x^4; \quad (2.70)$$

ko'rinishda qilsak, berilgan steyen uchun chegaraviy shartlar quyidagicha bo'ladi

$$\left. \begin{array}{ll} x=0 & \text{da} \quad y=0 \quad \text{va} \quad y'=0 \\ x=l & \text{da} \quad y''=0 \quad \text{va} \quad EJy'''' + Py' = 0 \end{array} \right\} \quad (2.71)$$

(2.70) dan birinchi tartibli hosila olamiz

$$y' = a_1 + 2a_2x + 3a_3x^2 + 4a_4x^3 \quad (2.72)$$

$x=0$ da $y'=0$ ekanligidan $a_1 = 0$ kelib chiqadi, u holda

$$\left. \begin{array}{l} y' = 2a_2 + 6a_3x + 12a_4x^2 \\ y'' = 6a_3 + 24a_4x \end{array} \right\} \quad (2.73)$$

(2.71) ga ko'mamiz

$$\left. \begin{array}{l} 2a_2 + 6a_3l + 12a_4l^2 = 0 \\ EJ(6a_3 + 24a_4l) + P(2a_2l + 6a_3l^2 + 12a_4l^3) = 0 \end{array} \right\} \quad (2.74)$$

tenglamalar sistemasi hosil bo'lishi yoki

$$\begin{cases} 2a_2 + 6a_3l + 12a_4l^2 = 0 \\ 2Pl a_2 + \left(\frac{Ecb^3}{2} + 3Pl^2\right)a_3 + 2l(Ecb^3 + 2Pl^2)a_4 = 0. \end{cases} \quad (2.75)$$

bu yerda tenglamalar sistemasi bir jinsli bo'lganligi uchun $a_1 = 1$ deb olinadi.

$$\begin{aligned} a_2 &= \frac{-6l^2(4Pl^2 - Ecb^3)}{Ecb^3 - 6Pl^2}; \\ a_3 &= \frac{4l(4Pl^2 - Ecb^3)}{Ecb^3 - 6Pl^2}; \end{aligned} \quad (2.76)$$

ni hosil qilamiz.

U holda egilgan o'q uchun quyidagi ifodani hosil qilamiz

$$y = \frac{f}{Ecb^3 - 6Pl^2} (6l^2(Ecb^3 - 2Pl^2) \cdot x^2 + 4l(4Pl^2 - Ecb^3) \cdot x^2 + (Ecb^3 - 6Pl^2) \cdot x^3) \quad (2.77)$$

Bu yerda f -noma'lum konstanta.

$$\text{Agar } f^* = \frac{f}{Ecb^3 - 6Pl^2} \text{ va}$$

$$\eta(x) = 6l^2(Ecb^3 - 6Pl^2) \cdot x^2 + 4l(4Pl^2 - Ecb^3) \cdot x^2 + (Ecb^3 - 6Pl^2) \cdot x^3 \quad (2.78)$$

deb belgilash kerisak, kritik kuchni

$$P = \frac{\int_0^l EJ(x)\eta''(x)^2 dx}{\int_0^l \eta'(x)^2 dx} \quad (2.79)$$

tenglamadan aniqlaymiz.

$$\eta'(x) = 12l^2(Ecb^3 - 2Pl^2) \cdot x + 12l(4Pl^2 - Ecb^3) \cdot x^2 + 4(Ecb^3 - 6Pl^2) \cdot x^3 \quad (2.80)$$

$$\eta''(x) = 12(l^2(Ecb^3 - 2Pl^2) + 2l(4Pl^2 - Ecb^3) \cdot x + (Ecb^3 - 6Pl^2) \cdot x^2) \quad (2.81)$$

$$J(x) = \frac{c}{12}(a-d-x)^3 = \frac{c}{12}(a^3 - 3a^2d + 3a \cdot d^2x - d^3x^2); \quad (2.82)$$

$$\text{Bu yerda } d = \frac{a-b}{l}.$$

$$\begin{aligned} \int_0^l EJ(x)\eta''(x)^2 dx &= \frac{Ecl^5}{70} [D_1(112a^3 + 560a^2d - 840ad^2l^2 - \\ &- 392d^3l^3) + PD_2(896a^3 + 14700a^2d - 12624d^2l^2 - 712d^3l^3) + \\ &+ P^2l^2(-1568a^3 + 16800a^2d - 4078ad^2l^2 + 1216d^3l^3)] \end{aligned} \quad (2.83)$$

ni hosil qilamiz.

$$\int_0^l (\eta'(x))^2 dx = l^7 (10 \frac{2}{7} E^2 c^2 b^6 - 74 \frac{4}{35} P^2 l^4 - 18 E P b^3 c l^2) \quad (2.84)$$

$$\text{Bu yerda } D_1 = E^2 c^2 b^2, D_2 = E b^3 c l^2;$$

Bularni (2.79) tenglamaga qo'yisak va ma'lum ber almashirish va hisoblashlardan keyin quyidagi tenglama hosil bo'lishi.

$$\begin{aligned} 5188 \cdot l^6 P^3 - Ecl^4 (12370 a^3 - 12292 a^2 b - 430 ab^2 + 39 b^3) P^2 + \\ + E^2 b^3 c^2 l^2 (2260 a^3 + 12684 a^2 b - 14760 ab^2 + 640 b^3) P + \\ + E^3 c^3 b^6 (-537 a^3 + 12296 a^2 b - 2016 ab^2 - 392 b^3) = 0 \end{aligned} \quad (2.85)$$

Bu tenglamada quyidagicha belgilashlar kiritamiz

$$A_1 = 5188 l^6; A_2 = -Ecl^4 (12370 a^3 - 12292 a^2 b - 430 ab^2 + 39 b^3);$$

$$A_3 = E^2 b^3 c^2 l^2 (2260 a^3 + 12684 a^2 b - 14760 ab^2 + 640 b^3);$$

$$A_4 = E^3 c^3 b^6 (-537 a^3 + 12296 a^2 b - 2016 ab^2 - 392 b^3)$$

U holda kritik kuchni aniqlash uchun R ga nisbatan kubik tenglama hosil bo'lishi

$$A_1 P^3 + A_2 P^2 + A_3 P + A_4 = 0 \quad (2.86)$$

yoki

$$P^3 + B_1 P^2 + B_2 P + B_3 = 0 \quad (2.87)$$

Hunda $B_1 = \frac{A_2}{A_1}$; $B_2 = \frac{A_3}{A_1}$; $B_3 = \frac{A_4}{A_1}$; (2.87) tenglamani kanonik ko'rinishga keltirish uchun quyidagicha almashtirish bajaramiz

$$P = U - \frac{B_z}{3}$$

U holda tenglama $U' + R_1 U + R_2 = 0$ (2.88)
ko'rinibga keladi

Bu yerda $R_1 = -\frac{B_z'}{3} + B_{z1}$; $R_2 = 2\left(\frac{B_z'}{3}\right)' - \frac{B_z \cdot B_z'}{3} + B_{z1}$;

(2.88) tenglamaning haqiqiy yechimi quyidagi formuladan topiladi:

$$U = \sqrt{-\frac{R_1}{2} + \sqrt{\left(\frac{R_1}{3}\right)' + \left(\frac{R_2}{2}\right)'}} + \sqrt{-\frac{R_1}{2} - \sqrt{\left(\frac{R_1}{3}\right)' + \left(\frac{R_2}{2}\right)'}} \quad (2.89)$$

Kritik kuch esa quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$P_{*} = \sqrt{-\frac{R_1}{2} + \sqrt{\left(\frac{R_1}{3}\right)' + \left(\frac{R_2}{2}\right)'}} + \sqrt{-\frac{R_1}{2} - \sqrt{\left(\frac{R_1}{3}\right)' + \left(\frac{R_2}{2}\right)'}} - \frac{A_z}{3A_z} \quad (2.90)$$

Takrorlash uchun savollar

1. Yog'och va plastmassa konstruksiyalari nechta chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblanadi?
2. Yuklarni qanday turlari mavjud?
3. Markaziy cho'zilishga qaysi formula yordamida hisoblanadi?
4. Markaziy siqilishga qaysi formula yordamida hisoblanadi?
5. Chegaraviy egiluvchanlik deganda nimani tushinasiz?
6. Egilishda qanday zo'riqishlar hosil bo'ladi?
7. To'g'ri va qiyshiq egilishlarni tushuntirib bering?
8. Nemarkaziy siqilishda qaysi formula yordamida mustahkamlikni tekshiriladi?
9. Nemarkaziy cho'zilishda qaysi formula yordamida normal kuchlanish aniqlanadi?
10. Yog'och eritishga qanday hisoblanadi?
11. Yog'och yuritishga qanday hisoblanadi?
12. Bino devorining ustoverligi qanday ta'minlanadi?

3-BOB

Yog'och va plastmassa konstruksiyalarining birikmalari

3.1. Yog'och konstruksiyalarining birikmalari

Yog'och materialining o'lchamlari cheklanganligi uchun, ularni ko'pincha ulashtirish, ko'ndalang kesimini kattalashtirish zarur bo'lib qoladi. Shunday hollarda birikmalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Yog'ochni ko'ndalang kesimi bo'yicha ham, uzunligi bo'yicha ham birlashtirish mumkin.

Ishlash xarakteriga qarab ular quyidagi turlarga bo'linadi.


- a) maxsus bog'lovchilarsiz - tirash, o'yiq birikmalari;
- b) siqilishga ishlovchi bog'lovchili - shponka, kolodtsa;
- v) egilishga ishlovchi bog'lovchili - bolt, qoziq, mix vint, plastinka;
- g) cho'zilishga ishlovchi bog'lovchili - bolt, xosut, vint;
- d) siqilish-yuritishga ishlovchi bog'lovchili - yellenlangan yog'och.

Ko'rinib turibdiki, bir xil bog'lovchilar turli birikma turlarida uchraydi. Shuning uchun ularni quyidagi guruhlariga bo'lamiz: metall bog'lovchili, yelim bog'lovchili, yog'och bog'lovchili. Bulardan tashqari ishlash xarakteriga qarab yana birikmalarni mayil va biki bog'lovchili turlarga ham ajratish mumkin.

Konstruksiya elementlarini birlashtirish jarayonida tashik va o'yiqqlar hosil qilishga to'g'ri keladi. Bular ko'ndalang kesimning zaiflashishiga va deformatsiyalanuvchanlikni o'rinishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun birikmalarning mustahkamligi va deformatsiyalanuvchanligi, hisoblash va tayyorlashga, yelimni to'g'ri tanlashga bog'liqdir.

Maxsus bog'lovchilarsiz birikmalarda uchta katta bo'lmagan zo'riqishlar hosil bo'ladi yoki zo'riqishlar bir elementdan boshqasiga biridaniga uzatiladi (2.1-rasm). Ulardagi maxsus bog'lovchilarni hisoblash talab qilinmaydi. Bunday birikmalarga konstruktiv o'yiqqlar va pesh o'yiqqlar kiradi. Yog'och konstruksiyalaridagi eng ko'p tarqalgan konstruktiv birikmalarga: cherak o'yiq, shpona, yarim o'yiq va qiyshiq tashlar kiradi. O'yiqqlar juda sodda va ishonchli birikmalar hisoblanadi va siqilishga ishlovchi elementlarni ulash uchun qo'llaniladi. Ular siquvchi bo'yama kuchdan ta'sir bo'ladigan ezilishga ishlaydi va hisoblanadi. Ular cho'zilishga ishlamaydi. Bunday birikmalar yuqorida ko'rilgan (2.50), (2.51), (2.52) formulalar yordamida mustahkamlikni tekshiriladi:

$$R_{*} = R_{*0} \frac{R_{*0}}{1 + 8/(l_{*} + 1,2)}; R_{*0} = \frac{R_z}{1 + (R_z/R_{*0} - 1) \sin^2 \alpha} \quad (3.1)$$



21- rasm. Tirlash:

a - yig'och to'ldan bo'yish bo'yama; b - tolalarga ko'ndalang; v - tolalarga burchak ostida qiyshiq; 1 - elementlar; 2 - tortuvchi boltlar; 3 - qoplamalar; 4 - po'lat mahkamlash; 5 - tayanch; 6 - qiziq; 7 - zaliqdagi kuchlanish epyuntari; α - erilish burchagi.


$$M_s = M_a / \xi \cdot K_f \cdot 2 \sin \alpha, \quad (9.4)$$

Bo'ylama kuch ikkala yo'nalishdagi sterjenlar tomonidan bir xilda qabul qilinadi: $N_1 = N_{\text{orta}} / 2 \cdot \sin \alpha$

$$N_1 = N_a / 2 \cdot \sin \alpha. \quad (9.5)$$

Sterjenlardagi kuchlanish quyidagi formula yordamida tekshiriladi:

$$\frac{N_s}{2 \cdot A_s \cdot \sin \alpha} + \frac{M_s}{\xi \cdot K_f \cdot W_s \cdot \sin \alpha} \leq R_s, \quad (9.6)$$

bu yerda: A_s, W_s - sterjenning so'f ko'ndalang kesim yuzasi va qirshilik momenti, α - sterjen bo'ylama o'q bilan hosil qiluvchi o'q orasidagi burchak,

$$\xi = 1 - \frac{\lambda^2 N_s}{3000 \cdot 2 \cdot A_{\text{orta}} \cdot R_s \cdot \sin \alpha} \quad (9.7)$$

λ - qubboni egiruvchanligi va bo'li mahkamlangan tugunli aylanma to'rt qubbalarda quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\lambda = \frac{0,6 l_0}{\sin \alpha \sqrt{I_{\text{orta}} / 2 A_{\text{orta}}}} = \frac{3 l_0}{\sin \alpha \cdot h_{\text{orta}}}. \quad (9.8)$$

bu yerda: 0,6 - qubba turini fazoviy ishlashini e'tiborga oladigan empirik koeffitsiyent.

Ko'rsatkichsimon ko'rinishdagi qubba uchun bu koeffitsiyent 0,7 ga tengdir.

Qubba yoyining bir tomonlarga yuklamadagi erkin hisobiy uzunligi $l_0 = 0,58 \cdot S$, S - o'lchash.

Yelimlangan fanera sterjenli sharnirsiz tugunli qubba uchun:

$$\lambda = \frac{0,6 l_0}{\sin \alpha \sqrt{I_{\text{orta}} / A_{\text{orta}}}} = \frac{0,6 l_0}{\sin \alpha \cdot r_{\text{orta}}}. \quad (9.9)$$

bu yerda: 0,6 - empirik koeffitsiyent.

O'yiq biriktirish tugunli qubba uchun:

$$\lambda = \frac{0,75 l_0}{\sin \alpha \sqrt{I_{\text{orta}} / 2 A_{\text{orta}}}}. \quad (9.10)$$

bu yerda: 0,75 - empirik koeffitsiyent.

Agar qubba ko'rsatkichsimon bo'lsa, empirik koeffitsiyent 0,85 bo'lishi kerak. Aylanma to'rtli qubbalarning sharnirsiz tugunli qubbalardan tashqari barcha variantlarida, tugunlarda asosiy sterjen tiriluvchi sterjenlar tomonidan eritiladi. Shuning uchun asosiy sterjenining yon tomoni eritilishga tekshirilishi kerak. Eritish kuchi quyidagi formula yordamida topiladi:

$$N_s = \frac{N_a}{2 \sin \alpha \cdot \sin 2\alpha}. \quad (9.11)$$

Bolt biriktirish aylanma to'rtli qubbalardagi kuchlarning yoyilishini 58-rasmdan ko'rish mumkin. Aylanma to'rtli qubba tugunidagi bo'lib hosil bo'ladigan zo'rliq:

$$N_b = \frac{N_s \cdot \cotg 2\alpha}{2 \sin \alpha}. \quad (9.12)$$

Sterjenlardagi siqilish zo'rliqshining qubboni hosil qiluvchi yo'nalishidagi teng ta'sir etuvchisi:

$$N_k = N_s \cdot \cotg \alpha. \quad (9.13)$$

Teng ta'sir etuvchini orqaga mahkamlanadigan to'rt sharning bo'ylama toxtasi qabul qiladi. Har bir b - keraklikdagi taxtani orqaga mahkamlash uchun zarur bo'ladigan miqdar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{\text{taxt}} = N_{\text{taxt}} \cdot b / \Delta S \cdot T_{\text{taxt}}. \quad (9.14)$$


bu yerda: N_{taxt} - miqdor soni; b - taxta eni; N_{taxt} - teng ta'sir etuvchi bo'ylama kuch; T_{taxt} - taxtani yuk ko'tarish qobiliyati, ΔS - bitta asosiy sterjenni oraliq bo'yicha gorizontal proyeksiyasi.

Uch qatlamli qubba - aluminij qoplamali va o'rta qatlamli perqoplast qatlamli plitlardan egirli bilan qirg'lanadi. Shukli bo'yicha segmentli, ko'rsatkichsimon tort-qichli yoki tortqichsiz bo'lishi va zo'rliqlarni devorga yoki poydevorga uzatishi mumkin. Bu qubba yelimlangan yog' och segmentli arkalar hisobiy sxemalaridan foydalanib hisoblanadi.

Yelimlangan yog' och gumbazlar katta o'lchali jansal binolarining to'n yopmalarida qo'llaniladigan eng umumiy konstruksiyalardan biri hisoblanadi. Ularning diametri 50 metrdan 100 metrgacha, balandligi esa 116 dan 1/2 gacha diametrga nisbatan bo'lishi mumkin. Ular ko'pincha sferasimon shaklda bo'ladi. Konstruksiyasini turiga qarab qobirg'ali, qobirg'a - halqali, to'rtli va qobirg'a-to'rtli bo'ladi.

Qobirg'a gumbaz - yoy bo'yicha egilgan yelimlangan yog' och qobirg'adan, meridian bo'yicha bir-biridan bir xil masofada qo'yilgan qobirg'alardan tashkil topgan (59a - rasml).

Ularda ikkita, yuqori va tag qismida tayanch halqalari bo'ladi. Yuqoridagi uchida yog' och yoki metall tayanch halqa, quyi uchida esa ko'pincha temirbeton tayanch halqa bo'ladi. Qobirg'alarga yog' och to'shama va surxovlar yoki yelimlanar to'shamalar mahkamlanadi. Arkasimon qobirg'alar bir necha joylardan qaynagan bog'lovchilari yordamida bir - biriga bog'lanadi.



39-*ras.* Yelimlangan yog'och gumbaz: *a* - qobirg'ali, *b* - qobirg'a-halqali; *1* - qobirg'a; *2* - yuqori uchidagi halqa; *3* - poydevonidagi tayanch halqasi; *4* - oralq holqasi; *5* - bag'lovchilar; *6* - qobirg'ali gumbaz qobirg'asining hisobiy moment; *7* - vadda shunday, halqasimon gumbazning.

Qobirg'a-halqali gumbaz (39b-*ras.*) qobirg'ali gumbaz kabi. Faqat bu turdagi gumbazlarda oralq gorizontal halqalar mavjud. Halqa vazifasini to'g'ri chiziqli butun yog'och yoki yelimlangan yog'och to'sinlar bajaradi va ular ko'pchilikdan hosil qilinadi. Halqa to'sinlar qobirg'a-halqali gumbazni fazoviy bir butun bo'lib ishlashini ta'minlaydi. Qobirg'a-halqali gumbazni yuk ko'tarish qobiliyati, halqasimon qobirg'ali gumbazning yuk ko'tarish qobiliyatidan kattadir.

Qobirg'ali gumbaz fazoviy sterjenli konstruktiv sifatida asosan xususiy og'irligi va qor yuklamasi ta'sirlariga hisoblanadi. Arkasimon qobirg'alar shartli ravishda uch sharnirli arkalarining bitta tekislikdagi ikki yacim arkasi sifatida qaraladi. Tashqi yuklamalar uchburchak epurasi bo'yicha ta'sir qilib, tegishli yuk maydonlari bilan tayanchda maksimal, uchida esa nolga teng bo'ladi. Statik hisob natijasida qobirg'a ko'ndalang kesim o'lchamlari aniqlanadi va siqilish-egilishga ishlovchi yog'och elementlarini hisoblash formulalari yordamida mustahkamligi tekshiriladi.

Qobirg'a-halqali gumbazlar fazoviy statik noomiy sterjenli konstruktivlar kabi ishlaydi va ular ham qobirg'ali gumbazlardagi yuklamalar ta'siriga hisoblanadi. Statik hisoblashda qobirg'alar shartli uch sharnirli arkalarining yarim arkasi sifatida qaraladi, faqat halqalar birikkan joylarda qo'shimcha gorizontal tayanchlarni siqilish-egilishga tekshirish orqali aniqlanadi. Halqa sterjenlarini ustivorligini hisobga olgan holda siqilishga tekshirish orqali ko'ndalang kesim o'lchamlari tanlanadi. Agar tom to'shmasi ularga mukammallanadigan bo'lsa, ular siqilish-egilish holatiga hisoblanadi. Tayanchdagi va uchidagi halqalar siqilishga yoki cho'zilishga ishlaydi va hisoblanadi.

To'rtli yelimlangan yog'och gumbazlar sferasimon sirt ustide to'rt bosh qilgan ko'rinishda bo'ladi. Bu to'rtlar uchburchakli yoki beshburchakli yashaykalaridan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Bu gumbazlarda qobirg'alar va eng yuqoridagi tayanch halqa bo'lmaydi. To'rtli gumbaz konstruktiviyasi tayanch poydevonidagi halqaga mukammallanadi. Bu konstruktiviyalarni hisoblashda ham doimiy va vaqtinchalik qor yuklamalari e'tiborga olinadi. To'rt sterjenlarini siqilishga ishlashdan kelib chiqqan holda, sferasimon qutbalar hisobidagi momentlar nazorat yordamida hisoblanadi. Bunda faqat xalqa va meridian zo'rliqlari aniqlanadi, hosil bo'ladigan bo'yama kuchlarni topiladi. Sterjenlarda bundan tashqari tom yopma elementlaridan hosil bo'ladigan og'irchi momentlar ham aniqlanadi va ko'ndalang kesim o'lchamlari siqilish-egilish holatida tanlanadi hamda tekshiriladi. To'rtli gumbazlarda halqa cho'zilishga ishlaydi va cho'zilishga hisoblanadi.

Qobirg'a-to'rtli yelimlangan yog'ochli gumbaz qobirg'ali gumbazga o'xshaydi. Bunda qobirg'alar orasida yashma-to'rtli yoki to'rtli gumbazlardagi kabi to'rt bo'ladi. Bu gumbazlar xuddi qobirg'ali gumbazlardagi kabi holatlarga ishlaydi va hisoblanadi.

Uch qatlamlı yig'malar yig'ma shakli konstruktiviyali tom yopmalarda qo'llaniladi. Ular tekis tomonlardan tashkil topgan bo'ladi va bu tomonlar bir-biri bilan burchak ostida biriktirilgan. Yig'malar qatlami tarkibi: qoya va yuqori aluminiy qoplamalar va orasida izoqlilik sog'laydigan vazifasini o'taydigan penoplast. Bu yig'malar fazoviy konstruktivlar turiga kiradi va 50 metrgacha bo'lgan oralqlarda qo'llanishi mumkin.

Yig'ma konstruktivlar yengilligi bilan ajralib turadi, lekin qish mavzularida yig'ma konstruktivlarda qor to'shmalarning hosil bo'lib qolishi xavflidir.

Tiniq plastik oynadan va organik oynadan tayyorlanadigan gumbaz va qutbalar 6 metrgacha bo'lgan kichik oralqlarda qo'llanishining asosiy sababi, bu materiallar qalinligining kichikligi va mustahkamligining pastligidir. Bu turdagi konstruktivlarga misol qilib ishlatish chiqarish va yamov binolaridagi fitor-yoritgichlarni keltirish mumkin.

Organik oynaning ultrabinafshe nurlarni o'tkazish qobiliyati xonalarda mikroqlim sog'lom mahitini hosil qiladi.

Uch qatlamlı plita gumbazlar uchburchakli yoki beshburchakli tekis yoki egilgan aluminiy-penoplast plitalardan tashkil topgan bo'ladi. Ularni yuk ko'tarish qobiliyati katta va ular 50 metrgacha bo'lgan diametrlı oralqlarni yopishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar

1. Qumbazlar qanday oraliqlarda qo'llaniladi?
2. Qumbazlarning qanday turlari mavjud?
3. Fazoviy konstruksiyalar qanday hisoblanadi?
4. Rivojlangan qaysi shtet mamlakatlarda yengil yog'och va plastmassa fazoviy konstruksiyalaridan foydalanib ko'pbi inshootlar qurilgan?
5. Fazoviy konstruksiya deganda nimani tushiradi?
6. Fazoviy konstruksiyalar qaysi oraliqlarda qo'llaniladi?
7. Fazoviy konstruksiyalarning qanday turlari mavjud?

9.2. Pnevmatik qurilish konstruksiyalari

Pnevmatik konstruksiyalar ishlab tashlash bo'yicha oama va tent membrana fazoviy konstruksiyalariga juda yaqindir. Bu konstruksiyalarning qobug'olari materiallardan tayyorlanadi. Ular shaklini biqat oldindan kuchlanish berilgan taqdirdagina oladilar. Tent membranalardan farqli uia oq (larda oldindan beriladigan kuchlanish memantik usulda hosil qilinadi), pnevmatik konstruksiyalarda oldindan beriladigan kuchlanish, bosimlar firop hisobiga hosil bo'ladi (ichki ortiqcha bosim yoki vakuum).

1940-yillarda kimyo fanining rivojlanishi, yukolishi munosabati bilan pnevmatik konstruksiyalar qo'llanila boshlandi.


Pnevmatik konstruksiyalar mustaqil havo tayanchli (60-rasm) va havo karkashi (61-rasm) gurublariga bo'linadi. Uchinchi turi - havo vantli (62-rasm) konstruksiyalar ham mavjud, lekin ular juda kam qo'llaniladi.

Havo karkashi - bu havo to'ldirilgan storjen yoki panel, uning yuk ko'tarish qobiliyati storjen yoki panel ichidagi havo bosimi orqali ta'minlanadi.


Katta ichki bosim - 150 kPa gacha, qatnashdirm va material mustahkamligini talab qiladi. Uning qo'llanish oraliqi $15 - 16 \text{ m}$ larni tashkil qiladi. Havo karkashi konstruksiyalarning narxi havo tayanchli konstruksiyalarnikidan $3 - 5$ barobar qimmatroqdir. Uning mana shu kamchiligi dunyo bo'yicha ularning keng qo'llanishiga to'siqlik qilib kelmoqda. Havo karkashi konstruksiyalarning afzalligi ichki maholda ortiqcha ichki havo bosimining yo'qligidir.

Nonan anoviy havo karkashi konstruksiyalarning qo'llanilishiga misollar keltiraylik. Padri paviloni va EKSPO - 70 Osaka'dagi satri yartuvchi pnevmatik teatrning tom yopmasi (Yaponiya).


Padri paviloni 16 m diametri 4 metr va uzunligi 78 metr bo'lgan pnevmatiklardan tashkil topgan (uning diametri 50 metr) Uning ikki yon tomonida 10 metr kenglikdagi ochiqlik mavjud. Uni cho'zilishga bo'lgan mustahkamligi 400 kN/m va massasi $2,5 \text{ kg/m}^2$ bo'lgan polivinilspiri to'lamdan tashkil topgan materialdan tayyorlangan. Materialni tashiq tomoni xaypaton, ichki qismi polietilen bilan qoplangan. Arka ichidagi oddiy bosim 10 kPa , agac shamol kuchaysa, bosim-



60-rasm. Havo tayanchli konstruksiyalar - havo qobig: a - umumiy ko'rinishlari; b - qisqin mamasi; v - hisobiy sasma; 1 - havoqumbur; 2 - silindimon yimli havo qobig; 3 - havo qobig; 4 - qobig; 5 - shlyuz; 6 - tayanch chiziq; 7 - havo beruvchi qurilma.



61-rasm. Pnevmo-karkashi konstruksiyalar: 1 - pnevmatik; 2 - pnevmatik; 3 - pnevmatik arka.



62-mm. a) - havovantli qubba va b) - qubbani ishlab chiqarish.

1 - qubba; 2 - po'lat vinlar; 3 - poydevot.

ni 25 kPa gacha ko'tarilish mumkin. Umuman olganda, orkalarining diametri 1 m dan oshmaydi, lekin Fudzi paviilonida qo'llanilgan havo karkasining diametri 4 m ni tashkil qiladi. Karkas diametrining oshirilishi ichki bosim va cho'zuvchi zo'riqlashning kamayishiga olib kelgan.

Havo tayanchli konstruksiyalar havoqa tayyandir (60-70 mm). Ular loyihadagi holatni ko'tarib turishlari uchun, tashqi va ichki havo bosimlarining farqi bo'ladi.

Tashqi ta'sirga chidamli bo'lishi uchun ichki bosim 10-40 kPa oralig'ida bo'lishi mumkin. Bu konstruksiyalar dunyoda keng qo'llanilmoqda. Markazidagi to'q yopmalar shaklligi, arzonligi va katta oraliqlarni yopish imkoniyati borligi bilan farq qiladi. Eng ko'p tarqalgan shakli - silindrsimon va sferasimon.

Amaliyotda ular 50-70 metr gacha bo'lgan oraliqlarda qo'llanilgan. Agar ular vinlar bilan kuchaytirilsa 168 metrgacha bo'lgan oraliqlarda ham qo'llanishi mumkin. Masalan, Germaniyada 20000 kishi yashaydigan shaharchani balandligi 240 metr, diametri 2 kilometr gumbaz shaklida yopish loyihasini nemis rahbari Otto rahbarligida ishlab chiqilgan. Bu gumbazning yuk ko'taruvchi kanati - poliefir tolalardan tayyorlangan diametri 270 mm li sintetik arg'anchidir. Ishlab muddeti 100 yilga kafolatlangan, qobiq ostidagi bosim ber yo'g'i 250 Pa ni tashkil qiladi.

Sferasimon ko'rinishdagi pnevmatik gumbazlar quyidagi diametrlarda tayyorlanadi: 12, 24, 36, 42, 60 metr.

Silindrsimon ko'rinishdagi pnevmatik qubbalar 12, 18, 24, 30, 36, 42, 48, 60 metr kenglikda va 24 metrdan 90 metrgacha bo'lgan uzunliklarda hamda 6 metrdan 20 metrgacha bo'lgan balandliklarda ishlab chiqariladi.

Pnevmatik konstruksiyalar uchun materiallar. Pnevmatik konstruksiyalar uchun ko'proq ipli ustini rezina yoki polimer bilan qoplangan gubnalarda, kamroq bir qatlamli yoki ikki qatlamli yuqori mustahkamlikka ega bo'lgan plyonkalar qo'llaniladi. Gubnalarda tabiiy va sun'iy sintetik tolalardan tayyorlanadi. Tabiiylariga kanoq, paxta, zig'ir tolalari, sun'iyatiga esa viskosa, oyna tolalari kiradi. Sintetik tolalar quyidagi gubnalarga bo'linadi: poliamidli - kapron, naylon, dederon, perlon, silon, stilon va boshqalar; poliofirli - lavsan, dakron, grizuton, diolen, trevira, tetaron, terilen va boshqalar; poliakrilli - niron, orlon, dralon va boshqalar; juda kam polivinilpiridil-vinol, vinilon va boshqalar.

Havo va suv o'tkazmasligi uchun gazlarga asosli bir tomonidan yoki ikki tomonidan sintetik kauchuk yoki plastmassa bilan qoplanadi.

Pnevmatik konstruksiyalarni hisoblash tizimlari. Pnevmatik konstruksiyalarni hisoblash quyidagi masalalarni yechishni o'z ichiga oladi:

1. Qubbaning maqbul shaklini topish.
2. Kuch ta'siri xarakteri va miqdorini aniqlash.
3. Qubba materialining fizik - mexanik xossalari va hisobiy qarshiligini aniqlash.
4. Yildirma ta'sirida qubba ko'chishini aniqlash.
5. Qubbaning kuchlanganlik-deformatsiyalanuvchanlik holatini aniqlash.

Pnevmatik konstruksiyalarni ham ikki guruh chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblanadi: 1) yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha - mustahkamlik va ustivorlik; 2) deformatsiya bo'yicha - solqilik, yig'ma hosil bo'lishi va tabiiy egriligini saqlash bo'yicha.

Pnevmatik konstruksiyaga quyidagi asosiy yuklamalar ta'sir qiladi (185 - rum): ichki bosim, shamol va qor yuklamalari. Xususiy og'irligi kichikligini o'tiborga olib hisoblashlarda u hisobga olinmaydi. Lekin ayrim hollarda, masalan qubba ostidagi ichki bosim kichik bo'lgan taqdirda xususiy og'irlik yetarli ta'sir ko'rinishi ham mumkin.

Tajribalar asosida shamol tezligi bosimi va pnevmatik konstruksiyasidagi ichki bosimi qiymatlari o'rtaidagi nisbat-q aniqlangan va unga asosan konstruksiyaga uchun eng noqulay bosimlar qiymatlarini aniqlash mumkin. Quyida shu nisbatlar va ularga mos keladigan pnevmatik konstruksiyalar ko'rinishlari keltirilgan. Qubba sferani 3/4 qismi shaklini olsa, $\psi \leq 1,1$; yarim sfera uchun $\psi \leq 0,8$, yonlari sferasimon ko'rinishdagi yarim silindr uchun $\psi \leq 0,7$. Bunda $\psi \leq P/g$ tengsizlikda asoslanildi (P - ichki bosim; g - konstruksiyaning xususiy og'irligi). Qor ta'siri qubbalarida quyidagi ko'rinishda olinadi:

$$P(q) = P \cos \varphi \text{ yoki } P(q) = P \sin 2\varphi, \quad (9.15)$$

bu yerda: φ - qubba ruyoviga o'tkazilgan urinma qiyalik burchagi ($\varphi \geq 45^\circ$ bo'lgan holda qubba ustida qor tumanmaydi); P - qorning me'yoriy qiymati.

Albatta pnevmatik konstruksiyalar asos material gubnaga ekanligini, material esa ikki perpendikulyar yo'nalishdagi iplardan tashkil topganligini, shuning uchun bo'y-lariga R_x va R_y yo'nalishdagi hisobiy qarshiliklari bo'yicha hisoblash usuli bajarilishi kerak.

Agar pnevmatik konstruksiya, materialini yirtilishidan oldin yuk ko'tarish qobiliyatini yo'qotadigan bo'lsa, uni albatta ustuvorlikka hisoblash zarur.

Deformatsiya bo'yicha pnevmatik konstruksiyalarni hisoblashda ularning maksimal nisbiy solqilgini aniqlash talab qilinadi. Pnevmatik konstruksiyalar egilishi bo'yicha hozircha ma'yoriy yo'q, uni ekspluatatsiya shartlari bo'yicha qabul qilinishi belgilash qo'yilgan. Solqilarning katta bo'lib ketishi pnevmatik konstruksiya-ning ishdan chiqqani emas, faqat ortiqcha solqilik inshootdan foydalanishga xalaqit bermasa bo'lib. Havotayanchli konstruksiyalarda solqilarni quyidagi formuladan aniqlash mumkin.

-sferasimon havotayanchli qubbalar uchun

$$f = \frac{3P}{5p_{ik} \cdot r} \quad (9.16)$$

-silindrsimon havotayanchli qubbalar uchun

$$f = \frac{P_{ik}^m}{2p_{ik}} \quad (9.17)$$

Bu yerda: P- 1ta ishchiining asboblari bilan taxminiy vazni, 1 kN (100kg kuch) ga teng bo'lgan vazni yoki ma'yoriy 1 m² ga toshadigan qor yuklamasi; P_{ik}^m- qubba uchadagi 1 metr kenglikdagi ma'yoriy qor yuklamasi; r- qubba sirti egirlik radiusi, P_{ik}- ichki bosim.

Odatda havotayanchli konstruksiyalarni hisoblashda materialni deformatsiyalanishini e'tiborga olinmaydi. Havokarkasli konstruksiyalar yig'ma hosil bo'lishi bo'yicha hisoblanadi, sababi ularning yig'ma hosil bo'lishiga ruqsat etilmaydi. Bu hisobda eng minimal -σ_{uz} cho'zilishdagi kuchlanishni aniqlash va shartni tekshirish va uni nolga teng bo'lib qilishiga yo'l qo'yilmaslik bel qilinadi. Havotayanchli konstruksiyalardagi ichki havo bosimi qymati, qubboni loyihaviy holatni saqlab qolishi sharti bo'yicha maksimal hisobiy shamol bosimidan katta yoki teng bo'lishi shartidan aniqlanadi:

$$p_{ik} \geq q_{sh} \quad (9.18)$$

undan keyin kuchli shu tengsizlik orqali maksimal ruqsat etilgan qor yuklamasi aniqlanadi,

$$p_{ik} \geq q_{or} \quad (9.19)$$

Havotayanchli konstruksiyalarni hisoblash. Havotayanchli sferasimon qubbalar va r- radiusli silindrsimon qubbalarining sfera qismining gorizontal(halqa) kesimi bo'yicha mustahkamligi ichki va hisobiy maksimal shamolni so'ruvchi bosim bo'yicha hisoblanadi:

$$\sigma = (p_{ik} + q_{sh}) \frac{r}{2} \leq R_s, R_t \quad (9.20)$$

Bu yerda: p_{ik}- ichki bosim; q_{sh}- shamol bosimi; R_s va R_t- materialning bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishlardagi hisobiy qarshiliklari

Vertikal(meridian) kesimlari mustahkamligi, ichki havo bosimi, so'ruvchi shamol bosimi va gumbazni yuqori qismiga qo'yilgan simmetrik qor yuklamalarini hisobga olgan holda aniqlanadi:

$$\sigma = (p_{ik} + q_{sh} + q_t) \frac{r}{2} \leq R_s, R_t \quad (9.21)$$

Silindrsimon havotayanchli qubbalar(r-radiusli) parallel tashkil etuvchilari bo'yicha ichki havo bosimi, hisobiy maksimal so'ruvchi shamol bosimi bo'yicha hisoblanadi:

$$\sigma = (p_{ik} + q_{sh}) r \leq R_s, R_t \quad (9.22)$$

Pnevmatik konstruksiyalarning tashkil etuvchiga perpendikular tekislikdagi kesimlari, agar yon tomonlari tekis va silindrsimon bo'lsa

$$\sigma = (p_{ik} + q_{sh}) \frac{r}{2} \leq R_s, R_t \quad (9.23)$$

agar yon tomonlari sferasimon bo'lsa,

$$\sigma = (p_{ik} + q_{sh} + q_t) \frac{r}{2} \leq R_s, R_t \quad (9.24)$$

formulalar yordamida hisoblanadi.

Havokarkasli konstruksiyalarni hisoblash. Havokarkasli konstruksiyalar materialni cho'ziladi va karkas radiusi o'zgarishi mumkin, lekin bu holat hisoblashlarda e'tiborga olinmaydi.

Markaziy siqilishga ishlovchi r- radiusli pnevmatik ustunlar parallel tashkil etuvchilari bo'yicha ichki bosim ta'siriga quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\sigma = p_{ik} \cdot r \leq R_s, R_t \quad (9.25)$$

Tashkil etuvchiga perpendikular kesimi mustahkamligi bo'ylama siqirvchi kuchni e'tiborga olmagan holda ichki bosim ta'siriga hisoblanadi:

$$\sigma = \frac{P_{ik} \cdot r}{2} \leq R_s, R_t \quad (9.26)$$

Havokarkasli ustunlar siqirvchi N-bo'ylama kuch ta'siriga ustuvorlikka hisoblanadi:

$$N \leq p_{ik} \cdot \pi \cdot r^2 \cdot \phi \quad (9.27)$$

bu yerda: φ- ustuvorlik koeffitsiyenti (8-jadval)

Markaziy-cho'ziluvchi pnevmatik sterjenlarning(8-radiusli) parallel tashkil etuvchi bo'yicha kesim mustahkamligi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\sigma = p_{ik} \cdot r \leq R_s, R_t \quad (9.28)$$


8-jadval Pnevmatik konstruksiyalar uchun bo'yicha og'ish koeffitsiyenti - φ rang qiyasi

λ	Ichki bosim, MPa(kg/cm ²)				
	0,1(1)	0,15(1,5)	0,2(2)	0,25(2,5)	0,3(3)
20	0,85	0,75	0,62	0,41	0,3
30	0,45	0,35	0,27	0,27	0,2
40	0,3	0,23	0,19	0,17	0,15
50	0,17	0,15	0,13	0,12	0,11
60	0,12	0,11	0,09	0,07	0,06

Tashkil etuvchiga perpendikular kesimi mustahkamligi bo'yicha cho'zuvchi N kuchni e'tiborga olgan holda ichki bosim ta'origa hisoblanadi:

$$\sigma = \frac{P_{12} \cdot r}{2} + \frac{N}{2\pi} \leq R_s, R_t. \quad (9.29)$$

Pnevmatik to'sinlar ko'ndalang og'ishga ishtirok etmaydi va ular mustahkamlik hamda ustuvorlikka hisoblanadi. Ular qattiq konstruksiyalardan farqli o'laroq, materiali yirtilmaadan yuk ko'tarish qobiliyatini yo'qotishi mumkin.



63-rasm. Yig'ma hosil bo'lishi bo'yicha og'ishchi pnevmoslementning chegaraviy holati.

- a - pnevmoslementni ko'ndalang kesimi, b-ichki bosimdan kuchlanish epyurasi;
- v - qubbadagi cho'zuvchi kuchlanish epyurasini o'rtasida tekislikda proyeksiyasi;
- g - qubbadagi cho'zuvchi kuchlanish epyurasining yarmini o'rtasida tekislikda proyeksiyasi.

Ichki havo bosimini ko'ndalang kesim bo'yicha teng ta'sir etuvchisi,

$$N = p_{12} \cdot \pi \cdot r^2. \quad (9.30)$$

Muvoznat sharti bo'yicha chegaraviy cho'zilishdagi maksimal kuchlanish,

$$\sigma = p_{12} \cdot r. \quad (9.31)$$

Teng ta'sir etuvchi havoning ichki bosimi va qubbadagi cho'zuvchi teng ta'sir etuvchi kuchlanish o'rtasidagi eksentrisitet - e ga teng.


$$e = \frac{r}{2}. \quad (9.32)$$

Ichki kuchlardan chegaraviy moment,

$$M = N \cdot e = \frac{P_{12} \cdot \pi \cdot r^3}{2}. \quad (9.33)$$

va yig'ma hosil bo'lishi sharti quyidagi ko'rinishni oladi

$$M_s \leq \frac{P_{12} \pi r^3}{2}. \quad (9.34)$$



64-rasm. Egiluvchi pnevmoslementning ustuvorligi bo'yicha chegaraviy holati.

- a - pnevmoslementni ko'ndalang kesimi, b-ichki bosimdan kuchlanish epyurasi;
- v - qubbadagi cho'zuvchi kuchlanish epyurasini o'rtasida tekislikda proyeksiyasi;
- g - qubbadagi cho'zuvchi kuchlanish epyurasining yarmini o'rtasida tekislikda proyeksiyasi.

Muvoznat sharti bo'yicha ($N=N_2$) qubbadagi chegaraviy cho'zilish teng bo'ladi:

$$\sigma_{max} = \frac{P_{12} \pi r^3}{2}. \quad (9.35)$$

Ichki havo bosimini teng ta'sir etuvchisi N va qubudagi teng ta'sir etuvchi kuchlanishga N_p orasidagi eksentrisitet teng:

$$e = \frac{Rr}{4} \quad (9.36)$$

U holda halqa kesimi bo'yicha ichki kuchlarning chegaraviy momenti quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$M_{\text{ichk}} = N \cdot e = \frac{P_{\text{ch}} \pi^2 r^3}{4} \quad (9.37)$$

va ustuvorlik sharti quyidagi ko'rinishni oladi

$$M_{\text{ch}} \leq \frac{P_{\text{ch}} \pi^2 r^3}{4} \quad (9.38)$$

Yuqorida keltirilgan formulalar pnevmoto'sin ko'taradigan chegaraviy q_{ch} yuklamalarni ham aniqlash imkonini beradi. Masalan, bir o'shaqchi to'sin ko'taradigan teng tarqalgan q_{ch} yuklamalarning qiymati quyidagi ifodalar bilan aniqlanadi: yig'ma hosil bo'lishi bo'yicha

$$\frac{q_{\text{ch}} l^2}{8} = \frac{P_{\text{ch}} \pi^2 r^3}{2}$$

$$q_{\text{ch}} = \frac{4 P_{\text{ch}} \pi^2 r^3}{l^2} = 12.54 \frac{P_{\text{ch}} r^3}{l^2} \quad (9.39)$$

ustuvorlik sharti bo'yicha

$$q_{\text{ch}} = \frac{2 P_{\text{ch}} \pi^2 r^3}{l^2} = 19.75 \frac{P_{\text{ch}} r^3}{l^2} \quad (9.40)$$

Oraliq o'rtasiga ta'sir qiladigan yig'ilgan P kuchning chegaraviy qiymati quyidagi ifodalar bilan aniqlanadi: yig'ma hosil bo'lishi bo'yicha

$$P_{\text{ch}} = \frac{2 P_{\text{ch}} \pi^2 r^3}{l} = 6.28 \frac{P_{\text{ch}} r^3}{l} \quad (9.41)$$

ustuvorlik bo'yicha

$$P_{\text{ch}} = \frac{P_{\text{ch}} \pi^2 r^3}{l} = 9.85 \frac{P_{\text{ch}} r^3}{l} \quad (9.42)$$

Bundan tashqari pnevmoto'sinlarning parallel tashkil etuvchilari kesimi bo'yicha mustahkamligi eguvchi momentni hisobga olmagan holda:

$$\sigma_{\text{ch}} = p_{\text{ch}} r \leq R_{\text{ch}}, R_{\text{ch}} \quad (9.43)$$

va ustuvorlikka hisoblashda halqa kesimlari bo'yicha hosil bo'ladigan chegaraviy kuchlanishlarga mustahkamligi

$$\sigma_{\text{ch}} = \frac{P_{\text{ch}} \pi^2}{2} \leq R_{\text{ch}}, R_{\text{ch}} \quad (9.44)$$

Siqilib-egiluvchi elementlar-pnevmoarkalar. Pnevmoarkadagi zo'riqlar ikki sharnirli arkadagi oddiy hisoblashlar orqali aniqlanadi. Siqilib-egiluvchi pnevmoustunlar va pnevmoaralar ustuvorlik va yig'ma hosil bo'lishi bo'yicha eng katta eguvchi moment va bo'ylama kuchlarning ta'siriga hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan eksentrisitetlarning qiymatlaridan foydalangan holda quyidagi formulalarni hosil qilamiz: ustuvorlik bo'yicha

$$M + N \frac{Rr}{4} \leq \frac{P_{\text{ch}} \pi^2 r^3}{4} \quad (9.45)$$

yig'ma hosil bo'lishi bo'yicha

$$M + N \frac{r}{2} \leq \frac{P_{\text{ch}} \pi^2 r^3}{2} \quad (9.46)$$

Pnevmatik elementlarni asosga mahkamlash ankerning mustahkamligi quyidagi shartni qanoatlantirishi kerak:

$$N_{\text{a}} \leq R^{\text{a}} \quad (9.47)$$

bu yerda N_{a} - bitta ankerning hisobiy uzunligi; R^{a} - anker materialining hisobiy qarshiligi.

Takrorlash uchun savollar

1. Pnevmatik konstruksiyalar deganda nimani tushunasiz?
2. Ilavotayanchli konstruksiyalarni tushuntirib bering?
3. Havo karkaali konstruksiyalarni tushuntirib bering?
4. Pnevmatik konstruksiyalarni hisoblashda qaysi yuklamalar e'tiborga olinadi?
5. Ular qanday materiallardan tayyorlanadi?
6. Pnevmatik konstruksiyalarning ishlash mukdlati qancha?
7. Nima uchun bu turdagi konstruksiyalar kam qo'llaniladi?
8. Qo'llanishiga oid misollarni chet mamlakatlar misolida keltiring?

Yog'och konstruksiyalarni ta'mirlash va kuchaytirish

10.1. Yog'och konstruksiyalarni kuchaytirish

Yog'och konstruksiyalari qurilish me'yori va qoidalari (AQJ) bo'yicha eng kamida inshootlarda - 50 yil, qishloq xo'jaligi inshootlarida - 20 va vaqtinchalik binolarda - 10 yil ishonchli xizmat qilishi kerak. Agar konstruksiyalarning ishlash me'yori buzilsa, oldinroq ham ular yuk ko'tarish qobiliyatlarini yo'qotishi mumkin.

Bu konstruksiyalar ishlatishga qabul qilinayotganda, albatta, birma-bir kuzatib chiqiladi. Agar zaf joylari aniqlansa, uni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilanadi. Bir yilda ikki marta - kuz va bahar faallarda tekshirish o'tkaziladi. Buning natijasi, qish faslida qor yog'ib qo'shimcha vaqtinchalik yuklarni hosil bo'ladi, bahorda esa yomg'ir yog'ishi natijasida tom yopmalaridan namlik sizib o'tishi mumkin va yog'ochning chirishi xavfi vujudga kelishi mumkin.


Ayrim hollarda yog'och konstruksiyalarini kuchaytirish va ta'mirlash zarur bo'lib qoladi.

Yog'och konstruksiyalar maxsus loyiha ishlab chiqilgandan keyin, quyidagi prinsiplarga asoslangan holda kuchaytiriladi:

- kuchaytirilgan yog'och konstruksiyalar oldingi funksiyasini to'la yoki qisman bajarishi kerak;
- agar qisman bajaradigan bo'lsa, uning qolgan qismini boshqa bir konstruksiyaga yoki yangi qurilish konstruksiyasiga ulatish masalasi ishlab chiqilgan loyihada hal qilingan bo'lishi kerak;
- kuchaytirilgan yog'och konstruksiyalari yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha, deformatsiya va boshqalar bo'yicha ishlab chiqish davridagi kuchaytirish qurilish me'yorlarini qanoatlantirishi kerak;
- yog'och konstruksiyasini kuchaytirish kerakligi va tanlangan variant iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak;
- bir turdagi yog'och konstruksiyalarini bir xil kuchaytirish kerak.

Yukzondatirish kuchaytirishdagi birinchi bosqich hisoblanadi (85-nom). Bu holda kuchaytiriladigan konstruksiyaning sinib ketish xavfi yo'qoladi. Ko'pincha ishlatilgan yog'och konstruksiyasidagi aloqilarni yo'qotish uchun u osh qo'yiladi yoki demkrat bilan ko'tarib qo'shimcha yuk ko'taruvchi element qo'yiladi. Konstruksiya kuchaytirilgandan keyin vaqtincha qo'yilgan element olib tashlanadi.

Yog'och konstruksiyalarini to'la qisqacha yoki alohida elementlarini kuchaytirish mumkin. Aniq bir usulni tanlash qator omillarga bog'liq: binoni to'la qisqacha va yog'och konstruksiyalarini qisman kuchaytirish masalasi, kuchaytirish elementi-



85 - nom Yog'och konstruksiyalarni osh qo'yish. a - osh qo'yish; b - mahkamlash tugunlari. 1 - konstruksiya; 2 - ustunlar; 3 - ko'ndalang taglik; 4 - qo'y taglik; 5 - miqdor; 6 - qo'y.

larini joylashtirish uchun yetarli joy bo'ligi va ekspluatatsiya sharoiti va boshqalar. Yog'och konstruksiyalarini kuchaytirishni turli belgilariga qarab turarlarga bo'lish mumkin. Ishlatilish muddati bo'yicha kuchaytirishni ikki guruhga bo'lish mumkin: vaqtinchalik va doimiy.

Kuchaytirish loyihasini ishlab chiqish kuchaytirish ishining birinchi bosqichi hisoblanadi. Loyiha yog'och konstruksiyalar o'lchamlarini aniq o'lchash orqali bajariladi. Kuchaytiriladigan yog'och konstruksiyalarining mustahkamligi standart namunalarni sinash orqali aniqlanadi. Bunda sinaladigan namunalar kuchaytiriladigan konstruksiyalarning yuklanmagan yoki kam yuklangan qismlardan olinadi. Kuchaytirish loyihasida konstruksiyalarning barcha ishlash sharoitlari hisobga olinadi va yetarli ishchi chizenalar beriladi.


Kuchaytiriladigan konstruksiyaga ta'sir qilayotgan yuklarni kamaytirish yoki butunlay olib tashlash, bajariladigan kuchaytirish ishlarining ikkinchi bosqichi hisoblanadi. Yuksoqlantirish ko'pincha, qo'shimcha ustunlar kiritish orqali, yuqoridagi elementlarga osh qo'yish orqali hamda qo'yqalar yoki demkrat yordamida ko'tarish orqali bajarilishi mumkin.

To'sin va satrovlarni devorga tayangan tayanch qismi chirigan yoki kuchaytirish zarur bo'lib qolgan holatlarda ularni kuchaytirish mumkin (86-nom). To'sinni chirigan qismi o'rniga metall shvelleryoki ikki metall burchakklik qo'yiladi. Bu metall element va yog'och orasiga gidrozolyutsiya qatlami qo'yiladi va metall yog'ochga ikkita bolt yordamida mahkamlanadi.

Metall element egilishga hisoblanadi. Bunda egrovchi momentning qiymati quyidagi teng bo'ladi:

$$M = R \cdot a, \quad (10.1)$$

bu yerda: a - tayanchdan birinchi bolt markazigacha bo'lgan masofa;
 R - tayanch reaksiyasi.



66 - rasn. Yog'och to'sinni kuchaytirish: a - to'singacha yog'och to'sin uchini kuchaytirish; b - to'sinlarni ikki tomondan yog'och fanera qoplamalari mahkamlash orqali kuchaytirish; 1 - to'sin, 2 - boltlar, 3 - quyi protektor, 4 - yuqori protektor.

Boltlarda hosil bo'ladigan bo'ylama kuchlarning qiymatlari quyidagiga teng bo'ladi:

$$N_1 = Ra/b; \quad N_2 = R(a+b)/b, \quad (10.2)$$

bu yerda: N_1, N_2 - birinchi va ikkinchi boltlarda hosil bo'ladigan bo'ylama kuchlar, b - boltlar orasidagi masofa.

Tarkibli to'sinlarni ikki tomondan yog'och yoki fanera qoplamalarni mahkamlash orqali kuchaytirish mumkin (66 b - rasn). Bunda ishlatiladigan surva chidamli faneraning qalinligi 10 mm dan kam bo'lmali kerak. Fanera qoplama va mixlar juft siljish zo'riqishi ta'siriga hisoblanadi:

$$T_{1/2} = \frac{1.5 \cdot M \cdot S}{I}, \quad (10.3)$$

bu yerda: $T_{1/2}$ - siljish zo'riqishi; M - egaruvchi moment; S - statik moment; I - inertsia momenti.

10.2. Hisoblash sxemasini o'zgartirmasdan va o'zgartirib kuchaytirish usullari

Kuchaytirish elementlari ishlash sxemasiga ta'sir qilishi bo'yicha ikki guruhga bo'linadi.

1. Yog'och konstruksiyasini oldingi ishlash sxemasini o'zgartirmasdan kuchaytirish.

2. Oldingi ishlash sxemasini o'zgartirib kuchaytirish.

Yog'och konstruksiyasini ishlash sxemasini o'zgartirmasdan quyidagi usullar yordamida kuchaytirish mumkin:

- qo'shimcha mahkamlash detallari o'rnatish bilan (bolt, mix, shurup va boshqalar);

- qo'shimcha alohida ishlovchi yukni kamaytiruvchi konstruksiyalar o'rnatish bilan;

- yog'och konstruksiyasini to'liq kuchaytirish yoki uni almashtirish bilan (uni yaroqsiz joyi bo'lishi mumkin);

- kuchaytirish materiali konstruksiya materiali bilan bir xil yoki boshqa materialdan bo'lishi mumkin.

Qurilish ta'mirlash ishlarining ayrim hollarida yog'och konstruksiyalarini ishlash sxemalarini o'zgartirib kuchaytirish eng samarali hisoblanadi.

Masalan, bir oraliqli to'sinning o'rtasiga tayanch qo'yilishi uni ikki oraliqli to'singa aylantiradi.

Qushloq xo'jaligi binolarida ko'pincha yelimlangan yog'och arka va uchburchukli tirgak tizimlarini kuchaytirishga to'g'ri keladi. Bunday holatlarda ularni ferma konstruksiyalariga aylantirish zarur bo'ladi.

Tekis yuk ko'taruvchi konstruksiyalar kuchaytirish usullaridan yana biri qo'shimcha bog'lovchilar kiritishdir. Bu holatlarda konstruksiyaning ishlash sxemasini o'zgaradi.

Takrorlash uchun savollar

1. Yog'och konstruksiyalari QMQ bo'yicha inshootlarda nechta yil xizmat qiladi?
2. Yog'och konstruksiyalari qaysi usullarda kuchaytiriladi?
3. Kuchaytirish qanday amalga oshiriladi?
4. Kuchaytirish sxemalaridan chizib ko'rsating?

Yog'och va plastmassa konstruksiyalarining iqtisodiyoti

11.1. Yog'och va plastmassa konstruksiyalarining iqtisodiyoti

Eng yaxshi konstruktiv yechimlar, variantlar texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida tanlab olinadi.

Konstruksiyalarni loyihada tugatilganlik darajasi teng bo'lgan holatlarda, yog'och va plastmassa konstruksiyalarini loyihalash me'yorlari teng mos kelgan sharoitlarda taqqoslash kerak.

Variantlarni bir-biri bilan taqqoslaganda, butun bir elementlar tizimi har bir variant uchun alohida hisoblab chiqiladi. Variantlashtirishda nima asos qilib olinadi degan savol tug'iladi, elementlarning massasi, hajmi, materiallar harajati, me'morlik me'yorlarini, konstruktiv yechimlarni va hokazolar.

Hozirgi zamon iqtisodiyot fani variantlarni taqqoslash masalasida har bir tur elementlari bo'yicha variant alohida - alohida taqqoslashni talab qiladi. Taqqoslashni ta'minlash uchun har bir variant bir xil birlik tuzimiga keltirib olinadi. Masalan, karkas va tom yopmalarini variantlar bo'yicha baholashda inshootning 1 m² yuzasiga tashyotgan ko'rsatkichlarini aniqlash tavsiya etiladi. Bino va inshootlarning alohida konstruksiyalari va konstruktiv yechimlarni baholash uchun texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimiga kiradi:

- loyihadagi narxi, so'm;
- loyiha bo'yicha tatarisi, so'm;
- keltirilgan harajatlari, so'm;
- konstruksiyalarning massasi, kg;
- Loyihadagi asosiy materiallar sarfi:
- yog'och, m³;
- po'lat, kg;
- plastmassa, kg;
- asbestcement, m³;

Loyihadagi asosiy materiallarning chiqish chiqishini hisobga olgan holdagi sarfi:

- aralangan yog'och materiallari, m³;
- fanera, m²;
- sintetik smola va plastmassalar, kg;
- yog'ochning keltirilgan sarfi, m³;
- tayyorlash mehnat sarfi, oshani/saat;
- tiklash yoki ko'rish mehnat sarfi, oshani/saat;
- tiklash muddati, kunlar.

Ko'rsatkich sifatida eng kam keltirilgan sarf harajati olinadi. Eng kam sarf harajati varianti iqtisodiy tomondan eng yaxshi variant deb hisoblanadi.

11.2. Materiallar sarfini aniqlash

Yog'och va plastmassa materiallari sarfi aniqlanganda, chiqadigan chiqindini ham e'tiborga olib hisoblash kerak.

Yog'och materiallari sarfi:

a) yehmlangan yog'och konstruksiyalari uchun:

$$V_{yog'och} = K_n \cdot K_{k.d} \cdot K_{k.l} \cdot K_{rand} \cdot K_{kut} \cdot V'_L \quad (11.1)$$

bu yerda:

V'_L - loyihadagi yog'och hajmi;

K_n - eskiz tayyorlashda chiqadigan chiqindini hisobga oladigan koeffitsiyent;

$K_{k.d}$ - eni bo'yicha kengaytirilishni hisobga oluvchi koeffitsiyent;

$K_{k.l}$ - tishli birikmalarni hosil qilish uchun, ya'ni bo'ylamas bo'ylab uzaytirishni hisobga oluvchi koeffitsiyent;

K_{rand} - tekislash, randalash, plast bo'yicha chiqadigan chiqindini hisobga oladigan koeffitsiyent;

K_{kut} - tayyor bo'lgan mahsulotni tekislashni e'tiborga oladigan koeffitsiyent;

$V_{yog'och}$ - haqiqiy kerak bo'ladigan, ajratiladigan yog'och hajmi.

b) qirrali yog'och va taxta konstruksiyalari uchun:

$$V_{qir} = K_q \cdot V'_L \quad (11.2)$$

bu yerda: V'_L - eskiz tayyorlashga kerak bo'ladigan yog'och hajmi, K_q - qirra eskizni tayyorlovga yoyishda chiqadigan chiqindilarni hisobga oladigan koeffitsiyent.

Fanera sarfi: $V_f = K_f \cdot V'_L \quad (11.3)$

bu yerda: V'_L - eskiz tayyorlashga kerak bo'ladigan fanera hajmi, K_f - qirra tayyorlovga yoyishda chiqadigan chiqindilarni hisobga oladigan koeffitsiyent; V_f - haqiqiy kerak bo'ladigan ajratiladigan fanera hajmi.

Dovrasimon ko'ndalang kesimli yog'och sarfi:

$$V_{dov} = K_d \cdot V'_L \left(\frac{d_s}{d} \right) \quad (11.4)$$

bu yerda: V_{dov} - dumaloq ko'ndalang kesimli yog'och hajmi, K_d - qirra tayyorlovga yoyishda chiqadigan chiqindilarni hisobga oladigan koeffitsiyent,

$$d_s = d + l$$

d_s - yog'ochning loyihadagi diametri, d - yog'ochning haqiqiy diametri,

Darasinmon ko'ndalang kesimli yog' ochning keltirilgan sarfi:

$$V_{\text{yog}} = V_{\text{d}} + 1,61 \cdot V_{\text{m}} + 2,5 \cdot V_{\text{f}}, \quad (11.5)$$

Yelim sarfi: $R_{\text{el}} = \rho_{\text{el}} \cdot V_{\text{el}}, \quad (11.6)$

bu yerda: R_{el} - umumiy yelim sarfi; $\rho_{\text{el}} - 1 \text{ m}^3$ dagi yelim sarfi; V_{el} - tayyorlov bloski hajmi.

Konstruksiyalarni tayyorlash narxi:

$$S_{\text{tx}} = \left[S_{\text{mat}} \cdot K_{\text{tx}} + S_{\text{m}} \cdot V_{\text{m}} + TS_{\text{m}} \cdot T_{\text{m}} \left(1 + \frac{S_{\text{u}}}{100} \right) \right] \cdot K_{\text{m}} \cdot K_{\text{f}}, \quad (11.7)$$

bu yerda: S_{mat} - asosiy materiallarni sarf harajati; K_{tx} - tashkilotni transport tayyorlash sarf harajatlari e'tiborga olinadigan koeffitsiyent; S_{m} - arallangan materiallarni quritish tannarxi, so'm/m³; V_{m} - arallangan yog' och materiallari hajmi, m³; TS_{m} - ishchining o'rtacha soat ish haqi; T_{m} - tayyorlash, mehnat sarfi; S_{u} - ustama harajatlari; $K_{\text{m}}, K_{\text{f}}$ - nazarda tutilmagan va rejadagi foydani e'tiborga olinadigan koeffitsiyent.

Konstruksiyaning tannarxi:

$$S'_{\text{mat}} = S_{\text{tx}} + S_{\text{u}}, \quad (11.8)$$

bu yerda: S_{u} - to'g'ri harajat-sarflar, S_{u} - ustama harajatlari

$$S_{\text{u}} = 0,7(S_{\text{tx}} + S_{\text{mat}}), \quad (11.9)$$

bu yerda: S_{u} - ish haqi; S_{m} - mashina va mexanizmlarni ishlatish haqi.

Hozirgi kunda materiallarni narxi savdo birligi narxi bo'yicha hisoblanmoqda. Ishlab chiqarish tashkilotlarining ustama harajatlari har bir tashkilot uchun har xildir, bu albatta tashkilotning mavjud bazasiga bog'liqdir.

Takrorlash uchun savollar

1. Yog' och va plastmassa iqtisodi deganda nima tushunasiz?
2. Konstruktiv yechimlar qanday olinadi?
3. Qurilish loyihasi bo'yicha aniqlangan yog' och sarfi qurilish uchun yetarli hisoblanadimi?
4. Yog' ochni o'lchov birligini ayting?
5. Plastmassani o'lchov birligini ayting?
6. Tannarx nima?
7. Yog' ochdan qanday materiallar olinadi?
8. Konstruksiyalardagi yog' och sarfi qanday aniqlanadi?
9. Metall sarfi qanday aniqlanadi?
10. Darasinmon ko'ndalang kesimli yog' och hajmi qanday aniqlanadi?

12 - BOB

Binolarning zilzilaga bardoshligi

Tom yopqan yog' och to'sindi, ichki temirbeton bilan kuchaytirilgan, monolit gil va xom g'isht devor konstruksiyali binolarni naturaviy dinamik eksperimental tadqiq qilish. Keyingi yillarda respublikamizda mahalliy ashyolardan tiklanayotgan binolarni zilzilaga bardoshli konstruksiyalarini yaratish va ularni eksperimental tadqiq qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Markaziy o'ralishda Namangan muhandislik-pedagogika institutida professor Q.I.Bo'ziyevning umumiy rahbarligida nazariy va eksperimental izlanishlar muvaffaqiyatli bajarildi. 2003-2005 yillarda eksperimental tadqiqotlar uchun Namangan viloyatining Uychi tumanida joylashgan «Qurilish materiallari ishlab chiqarish zavodi»ning hududida rejadagi o'lchami 4000 x 5000 mm, balandligi 3000 mm bo'lgan bir qavatli tom yopqan yog' och to'sindi, monolit gil va xom g'isht devor konstruksiyali ichki temirbeton o'zak bilan kuchaytirilgan 2ta binolar qurildi (69-rasm).

Sinovlar Namangan muhandislik-pedagogika instituti va O'z FA qoshidagi «Mexanika va inshootlar zilzilabardoshligi instituti» bilan hamkorlikda o'tkazildi va uning tavsiflari quyidagicha:

1. Sinov - naturaviy.
2. Sinov ob'ektlari - yog' och tom yopqan, kompleks ichki temirbeton o'zakli monolit gil va xom g'isht devor konstruksiyali binolar. (2 ta)
3. Sinovdan maqsad - yog' och tom yopqan, kompleks ichki temirbeton o'zakli monolit gil va xom g'isht devor konstruksiyali binolarning dinamik xarakteristikalarini aniqlash (tetrunish davri - T, tebranish chastotasi - f, tetrunishning logarifmik dekoamenti - d, energiyani yutish koeffitsiyenti - y, noelastik qarshilik koeffitsiyenti - g).
4. Tetrunishlarni hosil qilish metodi - tom yopqan sathidan kalibrovka qilingan 9 ta turdagi halqalar yordamida bino uzunligiga ko'ndalang yo'nalishda gorizontal tortish-uzish(bunda kalibrovka qilingan halqalar cho'zuvochi kuch ta'sirida uzildi).
5. O'lchash metodi - tetrunishlarni ko'p kanalli tadqiq qilish.
6. O'lchash apparaturalari - Oszillograf H041, shunt qutisi, VEGIK, OSP, galvanometrlar - GB-III, GB-IV, M 601.1A.

Dinamikaning hisoblash metodlari binolarni real ishlash sharoitini to'liq hisobga olmaydi, shuning uchun ularni tajribada sinov ko'rish maqsadga muvofiqdir.


Devorning ko'chishi VEGIK yordamida, tetrunishi esa -OSP vibrodatchiklari yordamida ko'ndalang va bo'ylama devorlarning quyidagi tasvirda ko'rsatilgan xarakteristikalarida aniqlandi. Binoga 5 ta VEGIK(V-1, V-2, V-3, V-4, V-5)-siljish seysmogrammalarini olish uchun, 4 ta OSP(O-1, O-2, O-3, O-4)-tetrunish akselerogrammalarini olish uchun o'rnatildi(70-rasm). Seysmogramma va akselerogrammlar 2ta NO41 oszillograflari yordamida yozib olindi (71-rasm). Binoni dinamik xarakteristikalarini aniqlashda tetrunish uyg'otishning yakuni biridaniga olish usuli qo'llanildi.

Binoning uchun bino seysmik belbog'i sahidan diametri 20 mm li vant-tross bilan qizirib bog'lanishi (68-rasm).

7. Yukni birdaniga olinishi uchun 9 ta seriyadagi kalibrovka qilingan halqalar oldindan laboratoriya sharoitida press yordamida cho'zishga sinab, ularni uzilishidagi buzuvchi kuchning qiymatlari aniqlab olinadi (67-rasm).

Bo'ylama devorlarga jami 750 kg yuklama yoyilgan holatda qo'yildi. Ushbu yuklama, tuzatqich elementlari: strepda, reyka hamda asbestsimentli to'lqinayimon listlardan tushadigan yuklamaning qiymatiga tengdir.

Dinamik sinov o'tkazishdan oldin VEGIK va OSP asimmetrik asboblari O'zFA qoshidagi «Mexanika va inshootlar zilzilabardoshligi» instituti laboratoriyasida vibratsiya yordamida ularni tekshirib o'tkazildi.




67-rasm. Pressda halqalarni kalibrovka qilish payti.

Kalibrovka qilingan po'lat halqalarning kalibrovka jadvali 9-jadval

№	Halqa kengligi V, m	qalinligi t, m	R _{dan} , kN	Tushqi diametri, m
1	0,002	0,003	2,305	0,057
2	0,0025	0,003	2,943	
3	0,003	0,0038	4,415	
4	0,005	0,0038	7,161	
5	0,007	0,0038	10,3	
6	0,01	0,0038	14,813	
7	0,015	0,0045	25,31	
8	0,02	0,0045	34,041	
9	0,025	0,0045	42,674	

8. Dairavimon ko'ndalang kesimli temirbeton o'zak bilan kuchaytirilgan monolit gil devor konstruksiyali binoning naturaviy dinamik sinovining birinchi 1-9 bosqichlarida bittadan halqalar, 10-bosqichida 2 ta 8-halqalar, 11-bosqichida esa 2 ta 9-halqalar yordamida eksperimentlar o'tkazildi.



68-rasm. Bino ni tortish mexanizmi: a - yon tomondan ko'rinishi; bo'yoqidan ko'rinishi.

69-rasmdan ko'rinib turibdiki, rasmining o'ng tomonida temirbeton o'zak bilan kuchaytirilgan xom g'isht devor konstruksiyali bir qavatli eksperimental bino qurilgan. Bu bino ham naturaviy dinamik eksperimental tadqiqotlar asosida sinaldi va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar olinadi.

Olingan seysmogrammlar asosida binoning quyidagi dinamik xarakteristikalarini aniqlandi (10 va 11-jadvallar).


Tetrunishning logarifmik dekrementi-δ,

$$\delta = \frac{1}{4} \ln \frac{Y_1}{Y_5}; \quad (12.1)$$

bu yerda: Y₁ va Y₅ - lar birinchi va beshinchi sikldagi tetrunish amplitudalari.



69-rasm. Chapda toq yopman yog'och to'sinli, ichki to'rtburchan o'zakli monolit gil devor konstruksiyali eksperimental bino.




70-rasm VEGIK va OGP lar o'rnatilgan xarakterli nuqtalar.



a)



b)



v)

71-rasm. Toq yopman yog'och to'sinli toq g'ali va monolit gil devor konstruksiyali eksperimental binolarni sinash payti: a va b- saymagan va akseleratsionlarni o'lish payti; v- yozishda qo'llanilgan 2ta HB41 o'tilleguflari shunt quvur muhitini sarflovchi bilan birgacha.

Energiyaning yutish koeffitsiyenti- ψ ,

$$\Psi = 2 \cdot \delta \quad (12.2)$$

Noelastik qarshilik koeffitsiyenti- γ

$$\gamma = \Psi / 2\pi \quad (12.3)$$

Telranish davri- T ,

$$T = L/n \cdot v \quad (12.4)$$

bu yerda: L - seysmogrammadagi yozuv uzunligi; n - sikllar soni; v - ossillografning yozish tezligi.

Telranish chastotasi - f quyidagi formula orqali aniqlandi:

$$f = 1/T, \text{ gts} \quad (12.5)$$

Olingan seysmogrammalar asosida binoning quyidagi dinamik xarakteristikalarini aniqlandi (10 va 11-jadval).

10- jadval

№	δ	T , sek	ψ	γ
1	0,133	0,076	0,266	0,042
2	0,221	0,081	0,442	0,07
3	0,133	0,073	0,266	0,042
4	0,135	0,1	0,27	0,043
5	0,159	0,104	0,318	0,051
6	0,203	0,1	0,406	0,065
7	0,261	0,112	0,522	0,083
8	0,296	0,086	0,592	0,094
9	0,262	0,093	0,524	0,083

Demak, ichki yopiq temirbeton o'zak bilan kuchaytirilgan xom g'isht devor konstruksiyali binolarni naturaviy dinamik eksperimentlari asosida olingan kompleks konstruksiyali binolarning dinamik xarakteristikalarini - $\delta = 0,133 \pm 0,296$; $T = 0,073 \pm 0,112$; $\psi = 0,266 \pm 0,592$; $\gamma = 0,042 \pm 0,094$; $f = 10,87$ gts. oralig'larida.

Shuning uchun ichki yopiq temirbeton o'zak bilan kuchaytirilgan xom g'isht devorlarni hisoblashda $\delta_{st} = 0,191$; $T_{st} = 0,092$; $\psi_{st} = 0,382$; $\gamma_{st} = 0,061$ o'lchamida e'lon tavsiya qilinadi.

